

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA
MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI**

SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI

TARIX FAKULTETI

**TARIXSHUNOSLIK VA MANBASHUNOSLIK
KAFEDRASI**

MALAKAVIY BITIRUV ISHI

***“QADIMGI TURKLARNING ILK AJDODLARI
TARIXINING O’RGANILISHI”***

BAJARUVCHI: Toshtemirov SH.

ILMIY RAHBAR: ASS. Ravshanov SH.T

SAMARQAND-2017

KIRISH.....	3-7
--------------------	------------

I-BOB. Qadimgi turklarning ilk ajdodlari va turlarning buyuk davlati tarixining o'rganilishi.

I.1. Qadimgi turklar tarixini o'rganishda manbalar tahlili.....	8-18
I.2. Qadimgi turklarning ilk ajdodlari va shakillanish jarayoniga doir ma'lumotlar.....	18-23
I.3. Qadimgi turklar (turkutlar) yoxud Ashina urug'ining buyuk davlati tarixining o'rganilishi.....	23-39

II-BOB. Qadimgi turklar davlatida siyosiy va ijtimoiy munosabatlarning o'rganilishi.

II.1. Qadimgi turklar davlatida siyosiy munosabatlar tahlili.....	40-52
II.2. Qadimgi turk elining ijtimoiy munosabatlar tahlili.....	52-62

XULOSA.....	63-64
--------------------	--------------

ADABIYOTLAR RO'YXATI.....	65-67
----------------------------------	--------------

KIRISH.

Mavzu va uning ahamiyati. Kishilik tarixining o'rganilishi bir maromda bo'lmagan. Evropa va YAqin SHarqda ijtimoiy bosqichlar almashinishi, voqea-hodisalar silsilasi XIX yuzyillik oxirlaridayoq ommabop asarlar yordamida ham yoritilgan, Xitoy va Hindiston tarixi XX asr boshida bayon qilingan bo'lishiga qaramay, Evroosiyo¹ning poyonsiz cho'l mintaqalari hanuz o'z tadqiqotchilarini kutmokda. Bu, ayniqsa, ikki ajoyib xalq - xunlar¹ va qadimgi turklar hamda nomlarini tarixda qoldirishga ulgurmagan bir qator qavmlar shakllanib, halokatga uchragan davr, ya'ni CHingizxon tarix sahnasida paydo bo'lgunga qadar zamonga taalluqlidir.

Garchi bularning ishlab chiqarish usuli - ko'chmanchi chorvachilik eng qotib qolgan, takomillashishi nihoyatda qiyin xo'jalik usuli bo'lsa-da ular bir-birini takrorlashdan nari o'tmagan deyish xato bo'lur edi. Xunlar va qadimgi turklarning turmush tarzi, muassasalari, siyosati va tarixdagi har biriningo'rni kabi ularning taqdiri ham turlicha edi.

Mazkur bitiruv ishida **“Qadimgi turklarning ilk ajdodlari tarixining o'rganilishi”** mavzusida bo'lib, makur ish 2 ta bob 5 qisimdan iborat. 1-bob **“Qadimgi turklarning ilk ajdodlari va turlarning buyuk davlati tarixining o'rganilishi”** deb nomlanib 3 qisimdan iborat. **I.1-qism** “Qadimgi turklar tarixini o'rganishda manbalar tahlili”ga qaratilgan. **I.2-qismda** “Qadimgi turklarning ilk ajdodlari va shakllanish jarayoniga doir ma'lumotlar” joy olgan.**I.3-qismda** “Qadimgi turklar (turkutlar) yoxud Ashina urug'ining buyuk davlati tarixining o'rganilishi”ga doir masalalar yoritilgan.

2-bob **“Qadimgi turklar davlatida siyosiy va ijtimoiy munosabatlarning o'rganilishi”** deb nomlanib, 2 qisimdan iborat. **II.1-qism** “Qadimgi turklar davlatida siyosiy munosabatlar tahlili”ga doir ma'lumotlar o'rin olgan. so'ngi **II.2-**

¹ Qarang: L. N. Gumilev, Xunnu, M. "Nauka", 1967.

qismda esa, “Qadimgi turk elining ijtimoiy munosabatlar tahlili”ga doir ma’lumotlar yoritilgan.

Jahon tarixi sahnasidan qadimgi turk xalqi tarixiga, uning tuzgan davlatiga boqilsa, tabiiy bir savol tug’iladi: aslida bevosita avlodlari hisoblanmaydigan ko’pgina qavmlarga o’z nomini meros qilib qoldirgan turklar nima uchun tarix sahnasida paydo bo’ldi-yu, nima uchun g’oyib bo’ldi? Ushbu muammoni echish uchun faqat siyosat tarixini yoxud faqat ijtimoiy munosabatlarni bir necha bor tahlil qilishlar samara bermadi. Qadimgi turklar insoniyat tarixida juda muhim o’rin egallagan bo’lishlariga qaramay, ular son jihatidan juda oz edilar. Turklarning Xitoy va Eron bilan yaqin qo’shni bo’lishi esa ularning ichki ishlarida aks etmasdan iloji yo’q edi. Binobarin, bu mamlakatlarning ijtimoiy va siyosiy tarixi chambarchas bog’lanib ketgan ekan, hodisalar jarayonini tiklash uchun o’sha ikki mamlakatdagi jarayonlarni ham e’tibordan soqit qilmasligimiz kerak. Vaziyatga iqtisodiy holatning o’zgarishi ham, jumladan, Xitoy tovarlari chiqarilishining oz-ko’pligi yoki Eron hukumatining cheklovchi tadbirlari ham kam ta’sir etmagan.

VI yuzyillik oxirlarida turk hoqonligi chegaralari g’arbda Vizantiya, janubda Eron, hatto Hindiston, sharqda Xitoyga borib taqalgan ekan, tabiiyki, mazkur mamlakatlarning o’sha chog’dagi tarixi turk saltanati taqdiri bilan bog’langandir. Turk davlatining vujudga kelishi kishilik tarixida keskin bir burilish kezi bo’ldi, chunki bungacha O’rta er dengizi va Uzoq SHarq madaniyati, garchi bir-birining borligidan bexabar bo’lmasalarda, uzilgan, ajralgan holda mavjud edilar. Poyonsiz cho’llar, baland tog’ tizmalari SHarq va G’arbning aloqasi uchun to’siq bo’lib turardi. Keyinroq ixtiro etilgan metall, uzangi, yuk ulovlari arava o’rnida ishlatila boshlagach, karvonlar sahro va tog’ dovonlaridan nisbatan oson va tez o’tish imkoniyatiga ega bo’ldilar. SHuning uchun ham VI asrda xitoylik Konstantinopol bozoridagi narx-navo bilan hisobashishga majbur bo’lsa, vizantiyaliklar Xitoy hoqonining pul zarb etuvchilari sonini hisoblash bilan ham mashg’ul edilar.

Mana shunday bir vaziyatda turklar faqat bir vositachi bo’lib qolmadilar, balki ayni chog’da Xitoy, Eron, Vizantiya va Hindiston madaniyatiga qarshi tura oladi

deb hisoblangan o'z madaniyatini rivojlangirishga muvaffaq bo'ldilar. Bu o'ziga xos dasht madaniyati qadim an'ana, teran ildizlarga ega bo'lsa ham, o'troq xalqlar madaniyatiga nisbatan bizlar uni kam bilamiz. Buning sababi turklar va boshqa ko'chmanchi qabilalar qo'shnilariga nisbatan qobiliyati kam ekanligi bilan emas, balki ular madaniyatining moddiy unsurlari-namat, teri, yog'och va mo'ynalarning toshdan ko'ra yomonroq saqlanishidadir. SHu sabab G'arbiy Evropa olimlari orasida ko'chmanchilar "insoniyat tekinxo'rlari" degan xato fikr paydo bo'ladi (Violle le-Dyuk) Hozirda Janubiy Sibir, Mo'g'uliston va O'rta Osiyoda muttasil olib borilayotgan arxeologik ishlar, bu fikrni rad etmoqda va tezda shunday kunlar keladiki, endi biz qadimiy turklar san'ati to'g'risida uning moddiy madaniyatidan ham ko'ra ko'proq gapira olamiz. Ana shuning uchun ham g'arbiy turklarning pog'onachi ulush tizimi, mansab zinalari, harbiy intizom, diplomatiya kabi ijgamoiy qurum (institut)lari va ijtimoiy hayotning murakkab shakllari tadqiqotchilarni lol qoldiradi. Bundan tashqari qo'shni mamlakatlarning mafkuraviy tizimiga qarama-qarshi ko'yilgan aniq-tiniq ishlab chiqilgan dunyoqarashga ham tan bermaslikning iloji yo'q.

SHunga qaramasdan, qadimgi turk jamiyati tutgan yo'l halokatga eltuvchi yo'l edi, chunki dashtda va uning chegaralarida paydo bo'lgan ziddiyatlarni hal etishning chorasi yo'q edi. Hal qiluvchi chog'larda cho'l aholisining asosiy qismi o'z xonlaridan yuz o'girar, yordam qo'lini cho'zmay qo'yardi, jumladan, 604 yilda ana shu holat hoqonlikning G'arbiy va SHarqiy qismlarga bo'linishiga olib kelgan bo'lsa, 630 va 639 yillarda mustaqillikdan mahrum bo'lishga olib keldi (bu mustaqillik 679 yilda qayta qo'lga kiritildi), 745 yilda esa butun bir xalqning halokatiga sabab bo'ldi. Albatta, bu halokat xalqni tashkil qilgan barcha odamlarning butunlay qirilib kegishini anglatmaydi. Ularning bir qismi dashtdagi hokimiyatni qo'lga olgan uyg'urlarga bo'yinsundi, katta bir qismi esa Xitoyning chegara qo'shinlari panohiga o'tdi. Xitoy chegara askarlari 756 yilda Tan sulolasi imperatoriga qarshi qo'zg'olon ko'tarishdi. Bunda turklarning ham tirik qolgan qismi faol qatnashdi va boshqa isyonchilar qatori go'shtlari burda-burda qilindi. Bu butun xalqning, o'sha xalq zamonasining rosmana nihoyasi edi.

Ammo turk nomi yo'qolib ketmadi. Yo'qolib ketmadigina emas, aksincha Osiyoning yarmiga tarqaldi. Arablar So'g'ddan shimoldagi jangari ko'chmanchilarning barchasini turk deb atay boshladilar, ular esa bu nomni e'tirozsiz qabul qildilar. Zotan, turk nomining dastlabki egalari er yuzidan yo'qolib ketmasidan burun barcha dasht qavmlari uchun jasorat va qahramonlikning bir namunasi bo'lib qolgan edilar. Keyinroq esa bu el nomi ma'nosi yanada kengayib, til oilasining atamasi bo'lib qoldi. VI-VII asrlardagi buyuk Turk hoqonligi hududiga hech vaqt kirmagan ko'plab qavmlar ham turklarga aylanib qoldilar. Ularning ba'zilari hatto mongoloid ham emas: turkmanlar, usmonli turklar, ozarbayjonlar. Boshqa birlari esa hoqonlikning ashaddiy dushmanlari edilar, masalan, yoqutlarning ajdodlari bo'lmish kurikanlar hamda xakaslarning bobokolonlari bo'lgan qirg'izlar. Uchinchi toifa turkilar masalan, balkar va chuvashlar qadimiy turklarning o'zidan oldin shakllanib bo'lgan edilar. Biroq hozirda lingvistik ma'noda keng tarqalgan "turk" "turki" atamasi o'z asoslariga ega: turklar qadimgi xun davrida pishib etila boshlagan va III-IV asrlarda biroz muallaq holatida bo'lgan dasht madaniyatini yorqin bir shaklda maydonga olib chikdilar.

Demak, qadimgi turklarning kishilik tarixida buyuk bir xizmatlari bo'lishiga qaramay, bu qavmning tarixi haligacha yozilgan emas. YOzilgan bo'lsa ham, yo'l-yo'lakay, qisqa-qisqa bayon etilib, manbashunoslik, onomastik, etnonimik va toponomik yondoshuvlarni chetlab, oson yo'l tanlangan. Bu boradagi qiynchiliklar shu darajadaki, ushbu xalq haqidagi asar mualliflari mazkur mavzu to'la yoritilib, muammolar uzil-kesil hal qilindi, degan fikrdan yiroq. Ayniqsa Qadimgi turklar masalasida Muallif L.N.Gumilev o'z ishlparida, ko'proq, muammo echimi borasida bir qadam tashlandi, degan umidda. "Qadimgi Turkklar" asarida tarixiy analiz va sintez metodlarini aralash qo'llash borasida bir tajribaga ham qo'l urildi. Qadimgi turklar ulardan oldin o'tgan yoki ular bilan muloqotda bo'lgan qavmlar tarixining ayrim parchalari analiz usuli bilan o'rganildi. Manbalarga tanqidiy yondoshuv hamda onomastika va etnogenez muammolari ham shu tarzda

o'rganildi. Muayyan yaxlit birlik davrlarida bunyod bo'lgan turkut² ko'k turk³ uyg'ur⁴ tarixini uzluksiz bir jarayon sifatida tasavvur qilish hamda tasvir etilgan hodisalarni dunyo tarixi jarayoniga olib kirishlar sintez usulining qo'llanishidir.

² Birinchi turk xoqonligi turklari (546-658)

³ Ko'kturk – ikkinchi turk hoqonligi turklari (678-747)

⁴ Faqat ko'chmanchi uygurlar xonligi nazarda tutiladi (747-847), keiirroq shakllangan o'troq uyg'urlar bu erda inobatga olinmaydi.

I-BOB. Qadimgi turklarning ilk ajdodlari va turklarning buyuk davlati tarixining o'rganilishi.

I.1. Qadimgi turklar tarixini o'rganishda manbalar tahlili.

YOzuvsiz yoki yozuvi bizgacha etib kelmagan xalqlar tarixini yaratishning o'ziga xos qiyinchiliklari borki, bu o'z yozuviga ega bo'lgan xalqlar tarixchilari uchun noma'lumdir. Turklarda tarixiy yozilmalar saqlanmagan, qabr ustidagi toshbitiklar esa uning o'rnini bosa olmaydi. SHuning uchun boshqa tillardagi manbalarga, ularning ilmiy doiraga olib kirilgan tarjimalariga suyanishga to'g'ri keladi.

Lekin turli manbalarda berilgan ma'lumotlar bir xil emas, buning ustiga doim ishonarli emas. Buning sabablari turfa xildir: ba'zida qadimiy muallif voqeadan to'liq xabardor emas. Gohida materialni berish usuli qiyinchilik to'g'diradi, yanabirida noxolislik (zamondosh muallif doimo hodisaga qandaydir manfaat yuzasidan yondoshadi), ba'zan VII asr fani darajasidagi farazlarga moyillik seziladi. SHu tufayli ham tanqidiy tarix tomonidan tekshirilgan, XIX-XX yuzyilliklar olimlari tomonidan tahlil etilganligi bois zamonasozlik xatolaridan xoli ishonchli xabarlar hisoblanadi. Faqat mana shunday ma'lumotlarga tarixiy sintezga asos bo'la olishi mumkin.

Voqealar tarixi madaniyat tarixidan keskin farq qiladi. Madaniyat tarixi uchun tarixiy hujjatlardagi ma'no bo'yoqlari va uslublari ham muhim bo'lsa, avvalgisida eng qiziqarli mashg'ulot xronologik jadval va tarixiy xaritalardagi bitiklardir.

Afsuski, Evropa mamlakatlari tarixiy ustunlarini tashkil etuvchi tekshirilgan va sanalashtirilgan voqealar oynasi Osiyo mamlakatlari uchun tuzilgan emas.

Manbalarni tadqiq etish usuli. Mavzuning murakkabligi, serqirraligi tarixiy tadqiq va taxlil tamoyillariga nihoyatda sinchkovlik bilan yondoshishga majbur

etadi. Eng mufasssal manba xitoy sulolalari yilnomalari bo'lganligi tufayli N. YA. Bichurin, Jyulen, E. SHavann va Lyu Mao-zzaylar o'shalarga tayanganlar va vaqti-vaqti bilan yunon, arab-fors mualliflari ma'lumotlariga murojat qilishgan. Bunday yo'l tutilishi, ularning istaklariga qaramay, tadqiqotlarida, o'rta asr xitoy tarixchilik tamoyillari qizil ip kabi mana-man deb tortilib qolgan. Biroq tarixiy tanqid g'alviridan o'tkazilganda, bu tamoyil noto'g'riligi ma'lum bo'lib qoldi. Umuman olganda, xalq tarixini to'laligicha uning dushmani iuqtai nazaridan o'rganish xatodir.

Aniq voqealar oqimi jarayonidan kelib chiqib qadimgi turklar tarixini yozish uchun, xitoy yilnomalarida keltirilgan barcha hodisalarni tanqidiy qayta idrok qilishga to'g'ri keldi. Ish xitoy solnomalarida qabul qilingan bayon qilish uslubi bilan murakkablashadi. Yilnomada "muvaffaqiyat qozonilmadi" deb ochilgan bo'lsa, bu doim xitoy qo'shinining uzil-kesil tor-mor etilganini ifodalaydi, agar "chegarani taladi" deb yozilgan bo'lsa, bu yo raqib otliq askarlarining uzoq muddatli bosqini yoki biror bir isyonchini qo'llash uchun uyushtirilgan shoshilinch hamla bo'ladi, buning ustiga isyonchi haqida lom-lim deyilmagani uchun, u hakdagi ixborotni boshqa matnlardan izlashga to'g'ri keladi (yaxshiyamki, xitoy tarixiga oid sanalar doimo to'g'ri beriladi), voqealar oqimi qiyoslash yo'li bilan ravshanlashtiriladi. Bunday chalkashlik, o'rni bilan esa soxtalashtirishlar tasodifiy emas, bu yilnomachining maglubiyatni bayon qilishda Xitoyning hukmron tabaqalari nafsoniyatiga tegib ketmaydigan shaklni topish uchun qilgan intilishlaridan kelib chiqadi.

Xitoy tarixyozarlarining yana bir xavfli tarixiy metodi bor - bu oddiy volyuntarizm. Ularning nuqqai nazaridan turklar ustidan g'alabani tushuntirib o'tirishga hojat yo'q: xitoylar doim har erda golib bo'lishi tabiiy bir holdir. Mag'lubiyatlarchi? Bunda aybdor — sovuq, qor-yomg'ir, ko'pincha doim nuqsoni topiladigan sarkarda yoki imperator. E'tiroz yo'q askariy sarkardaning uquvsizligi urushda naf keltirmaydi, biroq o'rta asr Xitoy manbalarida jamiyatdagi sinfiy ziddiyatlar doimo tashqi voqealardan ajratib beriladi, oqibatda, voqealar bog'lanishi buziladi. Bu qiyin vaziyat Xitoy tarixini bizning mavzumizga tegishli

joyini keragidan qam chukurroq va ko'proq o'rganish yo'li bilangina bartaraf qilinadi. Jucha qiyin, engib o'tish og'ir bo'lgan muammo bu tarixiy chegaralardir, mumki xitoylar ko'p shaharlar, hatto kichik shaharlar nominm ham tez-tez o'zgartirib turishgan. Omadimiz bor ekan, N. YA. Bichurin tomonidan tarjima qilingan Da Zin I-tun-chjining Xitoy geografiyasida almashtirilgan nomlar majmuasining borligi qo'l keldi. Ushbu mukammal manba qadimgi turklar va boshqa ko'chmanchilar hamda Xitoyning o'zini tarixi bo'yicha ham ilk ish sifatida nashr etilgan edi.⁵

Qiymati jihatidan ikkinchi o'rinda turuvchi manba — turk toshbitiklariga mutlaqo boshqacha yondoshish talab etiladi. Bu yodgorliklarning aksariyati bir davrga - VIII asrning ikkinchi choragiga to'g'ri keladi va mazmunan siyosiy va tarixiy jihatdan bir-biridan farq qiluvchi ikki oqim - Yo'llug'tegin va To'nyuquq orasidagi bahs manzarasini aks ettiradi. Toshbitiklar kompozitsiyasi xuddi bir-biridan nusxa ko'chirgandek bo'lsa ham, hodisalar sharhi mutlaqo bir-biriga zidzir. Bu o'rinda tanqidiy tarix uchun keng maydon ochilishi bilan birga uni tafsirlashga ham sharoit bor: har ikki muallif bizga ma'lumdir. SHu tufayli ham har gal o'zgartirishlar kiritish, bahsdagi izohlardan haqiqatni ajrata olish imkoni bor.

Hoyto-tamirdan topilgan yodgorliklar orasidagi eng ahamiyatlisi, ayni chog'da turki tilda yozilgan va bizga ma'lum bo'lgan eng qadimgi she'r haligacha tafsirlanmagan kichik toshbitiklar qatoridadir.

Toshbitiklar tarixchilar e'tiborini ko'p martalab tortganiga qaramay, bizning ishimizda tavsiya etilayotgan doirada ko'rib chiqilgan emas. Lekin aynan shu yo'nalishda ko'rilganidagina qadimgi turk jamiyatida siyosiy oqimlar borligi va ularning xossalarini aniqlay olish mumkin. Boshqacha aytsak, biz monologlar dialogga aylanishiga, o'quvchiga qadimgi turklarning faqat so'zlari emas, balki siyosiy munozaradagi ularning ohanglari ham etib borishiga intildik.

Vizantiya, arman, arab-fors tarixchilari asarlarida turklar haqidagi daraklar esa uzuq-yuluq yoki mujmal. Turki ismlarni ular tanib bo'lmas darajada buzib ishlatganlar, buning ustiga unvon o'rniga ism va aksincha qo'llashlar tez-tez

⁵ N.YA.Bichurin, Sbranie svedeniy i istoricheskoy gegrafiy...

uchrab turadi. Biroq yunon- arman va arab-fors manbalari umumiy sahnning uzviy qismi sifatida ayrim parchalarni to'ldirish va xitoy manbalarining shubhali o'rinlarini tushunish uchun yordam beradi.

Shu munosabat bilan qiyinchiliklari va imkoniyatlari ilgari o'z bahosini ololmagan, e'tibor berilmagan qadimgi turk onomastikasi muammosiga diqqatni jalb qilmoqchimiz. Turklar evrupaliklar kabi tug'ilganidan to o'lgunicha bir ism bilan o'tgan emas. Turk ismi doim uning jamiyatdagi mavqeini ko'rsatib turgan. Bolaligida laqab, o'smirligida — lavozim ismi, er etgach unvonli bo'lgan, agap u xon bo'lsa uning unvoni pog'onali ulush tizimiga uyg'un ravishda o'zgarib borgan.

Bundan tashqari turklar ismi xitoycha talaffuzda bir boshqa bo'lsa, yunon, fors va arablarda yana boshqacha bo'lgan. Biz kim va nima uchun turli vaqtlarda har xil nomlanishini amiqlashga muvaffaq bo'ldik. Mana shu joyda muammoning eng qiziqarli joyi boshlanadi: xitoylar ierogliflarni tasodifan tanlamagan, ular tanlagan ierogliflar turkcha tovushning faqat bir qismini ifoda etgan. Ko'plab ierogliflar turki ism egasiga yaxshi yoki yomon munosabatni ifodalash uchun maxsus tanlab olingan, aynan xuddi shu erda xitoy siyosatining ranglarini ilg'ab olish mumkin.

Ismlarni tanlash bo'yicha ishda VI-VII yuzyilliklar uchun ierogliflarning to'g'ri talaffuzini va ma'nosini tiklash bilan shug'ullanuvchi xitoyshunos M. F. Xvan bilan birgalikda olib borilgan. Bu ma'lumotlarni turki so'zlar va ism egalarining oti tarjimai bilan ham chog'ishtirish ayrim turki ismlardan ancha-munchasini aniqlik bilan tanlash imkonini berdi. Masalan, avval qabul qilingan "Ibi SHabolo SHexu Kexan" to'g'rilanib "Irbis Ishbara Jabg'u qag'an" ma'nosi esa: "Qor barsi shafqatsiz//qudratli oqsoqol xon" deb o'qildi. Oldingi o'qilishlarning ba'zilar tuzatildi, masalan, E. SHavann "Bugya-kexan"dagi "Bugya"ni "Bilga" -ya'ni "dono, bilimdon" deb tarjima qilgan bo'lsa, endi u "Bo'ka" - "qudratli" deb o'qildi. Biz tiklagan ismlarimizning ko'pi farazga asoslangan bo'lsa ham men aniq ko'rinib turgan noto'g'ri xitoycha ohangni qoldirishdan ko'ra (o'quvchi ko'nikkan shakllar izohlarda qoldirilgan) ularni matnga kiritishni afzal ko'rdim. Izahlarda turki ismlarning arabcha, forsha va

yunoncha yozilishi ham berildi, chunki alifboli yozuv ieroglifli chizmalarni juda yaxshi tahrir qila oladi.

Ammo ismlar transkripsiyasini bir qolipga keltirishday, bir qaraganda oson ishni eplay olmadim. Turk, xitoy, tibet ismlari uchun xalqaro transkripsiya yuq. Har bir evrupa tilining orfografiya bor, chunki fonetika 1200 yil davomida o'zgarib ketdi, bundan tashqari, u lahjalar bilai ham bog'liq edi. Hoshiya yozuvlarida ismlarni u olingan manbada qanday yozilgan bo'lsa shunday berishga to'g'ri keldi, shuning uchun ham yagona tizimga amal qila olmadim. Aslini olganda, kitobimizda qo'llangan tizim til bilimini emas, fan tarixini aks ettiradi.

Xtoy ismlarining o'qilishi N. YA. Bichurin. V. V. Grigorev, V. V. Bartold, Grumm-Grjimaylo kabi rus mualliflarining mumtoz asarlarida ishlatilishga mos keladi. E. SHavann. P. Pello, R. Gruss kabi fransuz mualliflari va Lyu Mao-zzayning nemischa tarjimasi o'qilishi ruscha o'qilishga ancha yaqin turadi. Bu mualliflar ierogliflarni alifboli yozuv bilan berishda VI-VIII asrlarning fonetikasida beradilar, hozirgi zamon sovet xitoyshunosligida esa XX asr fonetikasi asos qilib olingan, oqibatda, turki ismlar talaffuzi til kelishmaydigan ko'rinishga ega bo'ladi va tavsiflashning imkoni qolmaydi: masalan, Tugyu o'rniga Tu-zzyue — "turk".

Toshbitiklardagi turki ismlarning yozilishining mezoni sifatida S. E. Malovning o'qishlari olindi. Eng murakkab o'qiladigani Tibet ismlari bo'lib, har bir tarjimon ularni o'zicha ifoda etadi. Bunday ismlarni B. I. Kuznezova tekshirib chikdiki, men u kishiga minnatdorchiligimni izhor etaman. Fors ismlari, ishimizda foydalanilgan manbalar lahjasiga eng yaqin hisoblangan tojikcha ohangda berildi.

Biz taklif etgan echim uzil-kesil bo'lmasa-da, faqat sharqshu- noslarga emas, balki keng o'quvchilar ommasiga mo'ljallangan tarixiy mazmundagi ishlarda ham qo'llash mumkin bo'lgan yangicha yondoshuv deb hisoblaymiz. Bu o'quvchiga hoshiya izohlari va uzindilarni Evropa tillaridagi qo'llanmalar vositasidatekshirish imkonini beradi va orfografiya turlichaligidan kelib chiqadigan chalkashliklarning oldini oladi.

Adabiyotlarni foydalanish usuli. Turklar tarixi ko'plab olimlarni o'ziga jalb etgan va keyingi 200 yil ichida unga qiziqish bir necha bor paydo bo'ldi. XVIII yuzyillikning o'rtalarida fransuz missionerlari ko'plab xitoycha tarixiy asarlarni keltirishdi, shulardan bizning mavzumiz uchun ahamiyatlilari Mayya va Gobillarning tarjima qilgan nashrlaridir. Bu ishlarning biz uchun ahamiyati muhimdir, chunki unda Xitoyning VI-VIII asrlardagi tarixi batafsil bayon qilingan: keyingi tarixchilar asarlarida tushirib qoldirilgan, lekin o'sha asarlarda berilgan ayrim juz'iy tafsilotlar biz oldimizga qo'ygan muammolarimizni echishimishga ancha yordam beradi. Ushbu tarjimalar zaminida XVIII yuzyilliklar o'rtalarida Sarbonn universitetining professori Degin "Xunnlr, turklar va mo'g'ullar tarixi" ko'p jildli asarini yaratdi.⁶

XIX asr boshlarida Viven de Sen-Marten hozirgi kungacha o'z ahamiyatini yo'qotmagan, hatto matnga nisbatan qimmatliroq bo'lgan izohlari bilan abbat Leboning "Vizantiya tarixi" asarini qayta nashr etdi.

Bu tadqiqotlarda turk hoqonligining bir chetki masalalariga tegib o'gilgan bo'lsa, Stanislav Jyulenning tarjimalari bevosita turklarga taalluqpidir. Uning nashrlari uzoq vaqtgacha qadimgi turklar tarixini o'rganishda boshlang'ich nuqga bo'lib qoldi. XX yuzyillik boshlarida, to'lalagicha G'arbiy hoqonlikka bag'ishlangan E. SHavanning muazzam obidaviy asari paydo bo'ldi. Undan keyin nozik sinchkovlik bilan yaratilgan P. Pello tadqiqotlari haada Anri Korde va Rene Grusselarning ajoyib tablig'lari (svodki) yuz kursatdi.

Uslubi va usuliga ko'ra fransuz maktabiga qo'shilib ketadigan Lyu-Mao-zzay hozirgi kunda GFRda ishlamoqda. Uning SHarqiy hoqonlikka bag'ishlangan ikki jildli ishida juda qiziqarli sharhlar borki, u Jyulenning ayni mavzudagi ishidan ustunroq hamda SHavanning asarini to'ldiradi.

Fransuz maktabining bir xususiyati — uning katta kamchiligini aytmasdan chetlab o'tib bo'lmaydi. Turklar fransuzlar uchun shunchalik bir g'aribki, yaxshisi, hoqonlik tarixiga o'rta asrlar xitoylar ko'zi bilan qarash maqbulroq. SHuning uchun ham hodisalarni bog'lovchi ishlar ularning ko'ziga ko'rinmaydi, ba'zida esa

⁶ Lebean, Histoire du Bas-Empire...

hodisalar xitoylar nuqtai nazaridan sharhlab qo'ya qolinadi. Faktofafiya bo'yicha birinchi o'rinni egallaydigan fransuz maktabining imkoniyatlarini ana shu holat chegaralab qo'yadi.

Nemis makgabi fransuzlarnikidan biroz orqada. I. Markvarg, F. Xirt va zamondoshimiz X. V. Xaussig asarlarida ilmiy barkamollik bilan g'alatlar, isbotlab bo'lmas filologik taxminlar va oddiy xatolar aralash-quralash bo'lib ketgan.

Juz'iy masalalardagi o'ta talabchanlik isbotsiz farazlar bilan aralashtirilib, "seyanto" afsonaviy "sirtardush" lar bilan aynanlashtiriladi. Ashida YUan-chjen To'nyo'quq bilan (Hirta) yoki Abruy "eftalit shohi" bilan bir shaxs deyiladi (Markvartda). Bunday farazlar fanga "o'tkinchi xatolar" sifatida kirib kelib, anchamuncha-zarar ham keltirdi.

Jamoatchilikka ma'lum va aniq shakllangan hodisalarni pisand qiyamaydigan muallif bilan bahslashishning ma'nosi yo'q, shuning uchun ham men uning kitobini e'tiborsiz qoldirdim.

Ko'chmanchishunoslik masalalarini echimiga rus maktabi deb nomlash mumkin bo'lgan ilmiy an'ana juda yaqin turadi, deb o'ylayman. N. YA. Bichurin, V. V. Grigorev, N. A. Aristov, G. E. Grumm- I rjmaylo, K. A. Inostranzev, S. I. Rudenko, M. I. Artamonov va boshqa bir qator olimlar ana shu maktab vakillaridir. Rus maktabining olimlari Markaziy Osiyo tarixiga shunchalar yaqinlashib kogdilarki, uning tarixiga dashtliklar kabi ko'zini "qisib va ochko'zlik" bilan boqdilar. Buning sharofati bilan olimlarimiz g'arbiy ovrupaliklardan shamg'alat bo'lgan ko'pgina xosliklarni ilg'ab oldilar va ko'chmakchilar olamini o'rganilishining o'ziga xos yo'nalishini yaratdilar.

Rossiyada Markaziy Osiyo tarixi va paleoetnografiyasini tadqiq etishning asoschisi N. YA. Bichurin (Iakinfi) bo'ldi. Uning xitoy voqeanomalaridan qilgan tarjimalari hanuzgacha tadqiqot ishlari uchun ishonchli asos bo'lib xizmat qilib kelmokda. Uning tarjimalarida xato va noaniqliklar kam, engil hamda asosiy mazmunga putur etkaza olmaydi. Buni Bichurin ishlarini asl nusxasi bilan solishtirib chiqqan N. V. Kyunerning matnshunoslik sohasidagi ishi ham to'la tasdiqlaydi.

Bichurin ishlariga tayanib A. A. Grigorev SHarqiy Turkiston tarixiy geografiyasi bo'yicha yirik tadqiqot yaratdi. Yunon-rum va arab-fors xabarlarini xitoy ma'lumotlari bilan chog'ishtirib, ushbu mintaqada xalqlar va madaniyatlar vorisligini aniqlashga muvaffaq bo'ldi. N. A. Aristovning hajmi kichik, lekin faktlar, fikrlariga to'la kitobi mavjud turki qabilalar haqida ma'lumotlar majmuasini berish bilan birga yo'qolib ketgan qabilalarni tadqiq etish masalasiga kelib taqaldi. Bu mavzu sharqiy "xunnu" bilan evropa "gunn"lari nisbatini o'rgangan K. A. Inostranzevning ishlarida o'z davomini topdi. Bu olim taklif etgan echimlar keyingi kashfiyotlarda o'z tasdig'ini topdi. Rus fani birinchi bo'lib ko'chmanchi madaniyat ildizlari haqidagi masalani o'rta tashladi. Ularda ijtimoiy qurumning xususiyatlari, san'at asarlari uslubi, askariy ishlardagi o'ziga xosliklarni keraklicha chuqur o'rganish shuni ko'rsatdiki, ko'chmanchi madaniyat mustaqil taraqqiyot yo'liga ega. u hech qachon bir chetki, chala yoki varvar madaniyati bo'lmagan.

Haqiqatdan ham S. I. Rudenkoning Oltoydagi, S. V. Kiselyovning Minusin chuqurligidagi, A. P. Okladnikovning Uzoq SHarqdagi arxeologik qazishmalari shunday bir samaralar berdiki, biz ko'chmanchilar madaniyatni xitoylar, sug'udlar yoki yunonlardan uzlashtirib oldi deya olmaymiz, balki endi o'troq va ko'chmanchi xalqlar orasidagi o'zaro ta'sir masalasini o'rta tashlaymiz.

M. I. Artamonovning "Xazarlar tarixi" asari metod nuqtai nazaridan katta bir muvaffaqiyat bo'ldi.⁷ Bu ishda Kaspiybo'yi va Qoradengizbo'yi xalqlari tarixi ichkaridan turib yoritildi: Janubiy rus cho'llarining xazarlar hamda boshqa aholilari birinchi marta Vizantiya imperiyasining dushmanlari yoki Kiev Rusining raqiblari sifatida emas, balki Xazarelning gurkirashi va halokatini belgilagan, tarixiy qonuniyat taqdiriga bo'yinsungan yaxlit mustaqil etnomadaniyat sifatida qaraldi.

Bizning ro'yxatimizga ko'plar kirmay qoldi, jumladan, islom SHarqi tarixi bo'yicha eng yirik mutaxassis V. V. Bartold ham. V. V. Bartoldning turklar tarixi bo'yicha⁸ ishlari masalamiz tarixini o'rganish bo'yicha, umuman, ijobiy rol

⁷ M. I. Artamonov, Istoriya xazar.

⁸ V. V. Bartold, O xristianstve...; Turkestan...; IV. Barthold, Die altturkischen Inschriften... Die historische ...

o'ynagan bo'lsa ham, tadqiqotlarning kelajagi uchun xizmat qiladigan aniqliklar kiritilgan bo'lsa ham, V. V. Bartold butunlay borlig'i bilan berilib ketgan forslar bilan VI-VIII yuzyilliklar ko'chmanchi turklari bir-biridan juda keskin farqlanib qolgan edi.

Fakt va sanalarga juda erkin munosabatda bo'lgan⁹ A. N. Bernshtamning kitob va maqolalari ham fanga kam naf keltiradi.

1896 yilda L. Kazn va N. A. Aristovlar ham o'z nuqtai nazarlarini bayon qilishdi. Kazn, turklar "miqdori etnik mansubligi bilan chegaralanmagan shaxslar va jamoalar" jamiyatidir degan qarashni o'rta qo'ydi.

Uning fikricha, turklarni o'zaro siyosiy birlashuv va askariy intizomgina bog'lab turardi. Hoqonlik davlat tizimini u "byurokratik" deb atab, uni ham asilzodalar tuzumiga, ham demokratiyaga qarama-qarshi qo'yadi. A. Kaenning qarashlari V. V. Bartoldning uning kitobiga yozgan taqrizida atroflicha muhokama qilingani uchun, bu haqda to'xtalishni maqsadga muvofiq, deb topmadik.

N. A. Aristov esa unga teskari nuqtai nazar bildirdi, ya'ni ko'chmanchilarda davlat vujudga kelishi o'z qabilasi va boshqalarini "o'z ta'siriga olib bo'ysundira olgan jasur, oqil, ishlarida omadli qabila boshchisi bo'lgan bir qabilaning kuchayishi"ning natijasi deb qaralmog'i kerak. Uning yiqilishi esa "urug' va qabilalarning mustaqillik uchun intilishining tobora kuchayib borishi ta'siridan"³⁰oziqlanadigan o'zaro nizolar hisobiga sodir bo'ladi, deb o'ylaydi. N. A. Aristovning qarashlari davom ettirilib rivojlantirilsa, dalillar kuchaytirilsa va ayrim tuzatishlar kiritilsa, yaxlit holida haqiqatga zid emas.

V. V. Radlov oddiy volyuntaristik qarashni ilgari surdi. Uningcha, faqatgina qabila boshchilarining ta'siri natijasida qisqa muddat ichida qudratli qabila qo'shilmalari yuzaga kela oladi.

Qabila boshchilari xon taxtiga ko'z tikar, faqat xonning qudratli qo'llarigina ko'chmanchi davlatni halokatdan saqshab qola olishi mumkin edi. Qachonki bu qo'l zaiflansa, davlat vayron bo'lg'usidir.

⁹ A. H. Bernshtam, Sozial'no-ekonomicheskii stroy...

SHu munosabat bilan aytmoq kerakki, xonning shaxsiy sifatlaridan ko'ra xalqining kayfiyati va xos askarlarining sodikushgi uning qo'llarini baquvvat yoki nimjon qiladi.

V. V. Bartold ayricha bir fikrni o'rtagatashladi: "Beklar "qora xalqqa" qarama-qarshi qo'yilgan, buning ustiga oliy hukumat doim beklar tarafini olmagan" U bunday qarashni V. Bangning: "xon tevaragidagilar turki xalqning kjsalishida xizmat ko'rsatgan o'zining qarindoshlari yoki beklari edi" degan fikrga javoban bayon qilgan. V. V. Bartold esa "bitiklarda ayrim demokratik fikrlar bildiril- ganligini" tushuntirib, turk hoqonlarini taxtni askariy zodagonlar bilan o'rab olib, demokratik imperiya g'oyalarini ilgari surgan ikkala Napoleonga qiyoslaydi. Birmuncha keyinroq Bartold ta'kidlaydiki, tabaqalar kurashi hodisasi ko'chmanchilarning hayotida keskin ijtimoiy tabaqalanish bo'lmagan davrini o'rgangan Radlovda ham asilzodalar bilan avom o'rtasida kurash borishini e'tirof etgan, lekin bu faktning ahamiyatni tan olmagan Tomsenda ham o'z aksini topmagan.

V. V. Bartoldning fikrlari, bizningcha, bir qarashda to'g'riga o'xshasa-da, turkut, ko'k turklar yaxlit tarixi tahlilida o'z tasdig'ini topmaydi.

Ushbu mavzumizga A. N. Bernshtam maxsus bir ish bag'ishlagan. Uning qarashlari tanqidi quyiroqda keladi. Nihoyat, masalaning yangi talqini- "ko'chmanchi imperiyalar" yaratilishining umumiy manzarasini hosil qilishga urinishni G. Prizak ishida ko'ramiz. E'tiborga olingan fakglarning nihoyatda ko'pligi, manbalarning sinchiklab ishlab chiqilishiga qaramay, uning xulosalarini to'liq qabul qilib bo'lmaydi. Buning ikki sababi bor: E. Prizakning umumiy mulohazalarida unga singib ketgan ayrim ko'r-ko'rona fikrlar ta'siri bo'lsa, juz'iy ta'kidlarida "o'tib yuruvchi xatolar", rad etilgan-u, lekin raddiya bibliografik ummonga tushib mayda maqolalar ichida ko'rinmay ketganligi uchun saqlanib qoladigan faraziy taxminlar bor. Baxtimizga, Prizak tadqiqiga tuzatish sifatida turkologik axborotlarning ancha aniq va ishonchli majmuasi A. N. Konopov tomonidan yaratilgani bois ham, biz Prizakning faqat asosiy fikrlariga e'tiborimizni qaratamiz. Bu "Dasht imperiyasi qanday qilib paydo bo'ldi?"

maqolasining boshlanishida lo'nda qilib ifoda etilgan. "Dashtda iste'dodli tashkilotchi paydo bo'lganida, u o'z urug'i, keyin qabilasi va nihoyat so'zimiz mavzusi bulgan qabila ittifoqini bo'ysundirish uchun atrofiga kuchli va sodiq kishilarni to'plagan. Keyin u yaqinlari bilan qaroqchilik yurishlari qila boshlagan. Agar bu ishda ham omadi yurishsa, natijasida qo'shni qabilalar qo'shib olingan. Navbatdagi vazifasi, bir tomondan qabila ittifoqidagi xukmron urug'ni yo'q qilish bo'lsa, ikkinchi tomondan harbiy bo'luklarini dashtdagi istehkomlarga avval O'rxun- O'nunda, so'ng CHuda joylashtirish bo'lgan.

Dashtdagi muqaddas erlarga egalik yangi ittifoq asoschisiga uning hukmronligi qonuniy ekanligi kabi maqom barakatini ato etgan. Binobarin, faqat hukmron urug'ga mansublarga xo'jayin sifatida qabul qilinardi. Ittifoqqa kiruvchi qabila boshliqlari ishtirok etadigan qurultoy muqaddas joyda, istehkomga yaqin erda chaqirilib, unda eski odat bo'yicha dasht podshohpigiga nomzod saylaganlar. Saylangan kishi shamanning tavsiyasi bilan shohlik unvonini qabul qilgan. Bunda hukmron unvonidan tashqari yangi davlat yoki ittifoq uchun nom ham qo'yilgan."

E Prizak bilan biz muhim masalalarda kelisha olmaymiz. Bizningcha, dashtdagi ittifoqlar bir xil usulda emas, har xil yo'l bilan tashkil topgan. E. Prizak bayon qilgan xonning saylanishi, vorislik bilan hokimiyatga kelishga nisbatan kam uchraydi. Dongdor urug'larni qirib tashlashga CHingizxongina qo'l urgan, bunday tutum turk, uyg'ur va xunlar uchun yotdir. Din va "shaman"lar mavqei juda bo'rttirib yuborilgan (E. Prizak barcha jodugar va rohiblarni umumlashtirib "shaman" deb hisoblagan shekilli, oqibatda atama ma'nosi kengayib, foydalanishga yaroqsiz bo'lib qolgan). "Barakat" tushunchasi genoteistik dinlarga nomuvofiqdir, chunki "tos" — qabila ma'budlarining yordami faqat o'sha qabila a'zolari bilan chegaralanadi, zotan, aynan mana shu aqida ilk turklar zamonida hukmron edi.

SHunday qilib, el o'rda va qabilalarning birgalikda mavjud bo'lish shakli bo'lib chiqadi. Aslida bu o'zaro bog'lanish tinch yo'l bilan ham vujudga kelsa bo'lar edi, biroq, amalda bu har ikki tomon uchun ham juda og'ir bo'lib, el

boshlanishidanoq beqaror bir shaklga aylandi. Tobe etilganlar azob chekkani va har qanday qulay fursatdan ajralib chiqish uchun foydalanishlari tushunarli, biroqo'rdaning o'zidagi bezovtalikchi? Saltanatni saqlab qolish zarurati beklar va "budun" halovatiga yo'l bermasdi, chunki muttasil jangovar qolatda shay bo'lib turgandagina el mavjud bo'la olardi harbiy mag'lubiyat, diplomatik xato, kamdan kam uchraydigan xoinlik, hatto oddiy loqaydlik elning mavjud bo'lishini xatarda qoldira olardi. Aynan mana shu sababga ko'ra ilk o'rta asrlarda Markaziy Osiyodagi siyosiy tuzilmalarning umri kalta bo'lgan edi.

I.2. Qadimgi turklarning ilk ajdodlari va shakillanish jarayoniga doir ma'lumotlar.

Urg'ochi bo'ri ajdodlari. O'z nasabini bilish va o'rganish Markaziy Osiyo xalqlarida azaliy bir udum edi.¹⁰ Qizig'i shundaki, ularning aksariyati o'z asl-nasabini u yoki bu jonivorga taqardi. Jumladan, tibetliklar erkak maymun va urg'ochi rakshasa (o'rmon ruhi)ni o'zlarining nasabboshisi deb bilsalar, mo'g'ullar bo'z bo'ri va ola kiyikni, telelar bo'ri va xun shanyuyi qizini, turklar bo'lsa xun shahzodasi va urg'ochi bo'rini nasabboshi hisoblardilar. So'nggi ikki afsona juda qadim zamonlarda, ya'ni bu ikki qavm hali buyuk Gobi sahrosining janubiy chekkalarida yashab yurgan chog'larda vujudga kelgan. Binobarin, mifologiya muayyan darajada siyosat tarixi va etnogenez faktlari bilan quvvatlanadi.

Tobalar SHimoliy Xitoyni qo'lga kiritgan palladagi qavm va qabilalar orasida "Ashinning besh yuz xonadoni"¹¹ ham bor edi. Bu besh yuz xonadon turli-tuman urug'larning chatishib ketishidan hosil , bo'lgandi.¹¹ Ularning yashash joyi SHensining g'arbiy qismida bo'lib, IV asrda xunlar va sanbiylar tomonidan Xitoydan tortib olingan edi.¹² Ashina urug'i Xesi (Ordosning g'arbiy tomoni, Xuanxe tirsagi va Nanshan oralig'idagi erlar) hokimi xun begi Mug'anga bo'ysunar edi. 439 yilda tobalar xunlarni mag'lub etib, Xesini Vey imperiyasiga

¹⁰ Rashid-ad-Din. Sbornik letopisev. 153 - b.

¹¹ N. YA. Bichurin. Sbornie svedeniiv.... 1 i. 221 - b.

¹² Xitov tarixnavisligida bu davr "U-xu". va'ni "besh varvar qavmi" deb ataladi. Xitov hududida ko'chmanchilar bunvod etgan davlatlar adadi haqida qarang: L. N. Gumilev. Kitavskaya xronograficheskaya terminologiya v trudax N. YA. Bichurina na fone vsemirnovo istorii. N. YA. Bichurishshng "Sbornie svedeniy po istoricheskoy geografii Vostochnoy i Sredinnoy Azii" kitobida ham, 658-662-6.

qo'shib olgach, besh yuz xonadonli Ashina begi jujanlarga qochib o'tadi hamda Oltoy tog'ining janubiy yonbag'irlarida makon tutib, shu erda jujanlar uchun temir qazib, temir uskunalari tayyorlaydilar.¹³

Tarixiy matn butun turk xalqining kelib chiqishi haqida hech narsa demaydi, u faqat uning hukmron urug'ining kelib chiqishi haqida so'zlaydi. Turklarning, kelib chiqishi haqidagi ushbu rivoyat afsonalardan xoli. Aftidan Ashina noaniq sabablarga ko'ra ko'plab sanbiy va xun beklari bilan chiqishmagan qochoqlardan iborat to'da boshlig'i bo'lgan. Mana shunday kichik-kichik harbiy to'dalar g'alayoni III-V yuzyilliklarda ko'plab paydo bo'lgan va aksariyati izsiz yo'q bo'lib ketgan, shunig uchun ularni davlat deb hisoblab bo'lmaydi.

Xitoylar Ashina xonlari qo'l ostidagilarni *tu-kyu* deb atashardi. Bu so'zni P Pel'o *turk-ut* shaklida juda aniq tiklagan. “*Turkut*”ning ma'nosi “turklar” demakdir, — *ut* turki emas, balki mo'g'ulcha ko'plik qo'shimchasi. Qadimiy turk tilida barcha siyosiy atamalar mo'g'ul tilidagi ko'plik qo'shimchasini qo'shish bilan hosil qilinadi. Bu esa bunday atamalar turki til doirasiga tashqaridan kirgan, degan fikr uyg'otadi.

Turk so'zining o'zi “kuchli, mustahkam” ma'nosini anglatadi. A. N. Kononov fikriga ko'ra, bu so'z jamlovchi ot bo'lib, bora-bora urug'lar jam'ini ifoda etuvchi etnik nomga aylangan. Bu uyushmaning ilk tili qaysi til bo'lishidan qat'iy nazar u tarix sahnasiga chiqqan pallada — V yuzyillikda uning barcha a'zolari uchun tushunarli bo'lgan qabilalararo til sanbiy, ya'ni qadimgi mo'g'ul tili edi. Bu til harbiy buyruqlar, bozor va diplomatiya tili edi. 439 yilda Ashina Gobi sahrosining shimoliy chekkasiga ko'chib o'tganda aynan shu tilda muloqot qilinar edi.

“Ashina” so'zining ma'nosi esa “bo'ri”dir. Turkichasiga bo'ri tushunchasi *qashqir* va *bo'ri* so'zlari bilan beriladi, mo'g'ul tilida esa, *shono//chinodir*. “A” xitoy tilidagi hurmat ifodasi bo'lgan old qo'shimchasi. Demak, “Ashina” degani “olijanob buri” deganidir.¹⁴ Ushbu so'zning xitoylashmagan shakli o'sha kezdagi arab matnida “shane” shaklida uchraydi.¹⁵

¹³N. YA. Bichurin. *Sobranie svedeniv...* 1 i. 221 - 6.

¹⁴Jl. N. Gumilev. *Tri ischeznuvix naroda*, 104-105 - b. Adabiyotlar ham keltirilgan.
Magoudi, *Les praizies d'or*, 289 - 6.

Bizning hozirgi bilimimizdan kelib chiqqan holda ashina xonlarining — totemchi ekanligini aniqlash qiyin,¹⁶ biroq VI asr turklari uchun “bo’ri” tushunchasi juda katta ahamiyat kasb etganligiga shubha yo’q. Xitoylik mualliflarning turk xalqlarining qarashiga tayangan holda ta’kidlashicha, “*turk xoni*” va “*buri*” tushunchalari sinonim bo’lgan. Sanbiy malikasi eri bo’lmish SHabolio xon go’g’risida gapirib “xon o’z xususiyatlariga ko’ra bo’ridir”³⁰ deyishi eejiz emas. Turklarga qarshi hujum qilish nizomida esa: “bundaylarni me’yorida iste’mol qilmoq kerak, ko’chmanchilarni kuvib, bo’rilarga hamla qilish lozim” deyiladi.³¹ Turk bayroqlariga bo’rining oltin kallasi zeb berib turgan³² va nihoyat, turklarning kelib chiqishi haqidagi ikki rivoyatda asos deb *uryuchi buri* olingan.³³ Bir-biridan biroz farq qiluvchi bu ikki rivoyatda eng muhimi, tarixan bo’lib o’tgan voqea - ashina urug’ining Gansudan ko’chib kelganligiga o’rin berilmagan. SHundan kelib chiqilsa, bu rivoyatlar kelgindi bo’lmish bu urug’ni mazkur erlarda haqqi borligini asoslash uchun Oltoyga ko’chgach, maxsus to’qilgan bo’lishi mumkin.

Birinchi rivoyatning e’tiborli tomoni shundaki, unda Xun xonadoniga G’arbiy o’lkadan g’arbgacha tegishli ekanligi, ya’ni Attila davlati haqida ham xabardorlik ma’nosi bor... Bu xonadon qushni qattollar tomonidan butunlay qirib tashlanadi, faqat dushmanlar oyoq va qo’llari kesib tashlangan to’qqiz yashar bolani botqoqda qoldirib ketadilar. Bola jarohatlaridan omon qolib, bo’ri bilan qovushadi. Dushmanlar qaytib kelib bolani o’ldirishadi. Bo’ri esa Oltoy tog’lariga qochib borib u erda o’n nafar bola tug’adi. Nasllari ko’payib va bir necha avlod o’tib Asyan-she degan kimsa butun urug’i bilan g’ordan chiqadi va jujanlarga o’zlarini vassal tutadilar”. SHunday qilib, ushbu rivoyat bo’yicha, Oltoydagi turk-tukyular (turkutlar) g’arbiy xunlardan to’g’ridan-to’g’ri emas, afsonaviy tarzdagi urg’ochi bo’ri vositasida to’ragan bo’lib chiqadi. Agar g’arbiy xunlar 468 yilda quvg’in qilinib qirib tashlangani, turklar esa 545 yilda xalq sifatida tarix sahnasiga chiqishi hisobga olinsa, ajablanadigan tomoni ko’payib, avlodlar almashinishining sur’ati tezligi hayratlanarli bo’lib qoladi!

¹⁶ J. Jlauson, *Turks and wolves*, 1-22 - b. (Alohida bosim).

Ikkinchi rivoyatga binoan turklar mahalliy So urug'idan, biroq ular ham urg'ochi bo'ri vositasida bunyodga keladi. So urug'ining barcha a'zolari "o'zlarining axmoqligi tufayli" halok bo'ladi (axmoqligi qanaqa ekanligi aytilmaydi), faqat urg'ochi bo'ridan bo'lgan go'rt nabirasi hayot qoladi. To'ng'ichi oqqushga aylanadi, ikkinchisi Zigu nomi bilan Abu va Gan daryolari oralig'ida makon tutadi, uchinchi va to'rtinchilari janubiy Oltoydagi CHusi (CHue) daryosi sohiliga o'rnashadilar. Bu rivoyatni N. A. Aristov tahlil qilib, rivoyatdagi So bilan shimoliy Oltoydagi Bie daryosi havzasida yashovchi hozirgi kumandilarning So urugani chog'ishtirgan. Birinchi nabirani Ku-kiji qabilasi bilan ikkinchisini Abakan (Abu) va Enisey (Gan-Kem) oralig'ida yashovchi qirg'izlar bilan bog'laydi. To'ng'ich o'g'ilning nabirasi avvalgi rivoyat bo'yicha Asyan- shedir. Mana shu nuqtada har ikki rivoyat ulanib ketadi"

Mo'g'ul Oltoyining togoldi mintaqalari xunlardan tarqagan turki tilda gaplashuvchi qavmlar tomonidan makon tutilgan bo'lib, mazkur qochoqlar ham shu erga kelib qolgan edi. Mana shu tub aholi bilan Ashina beringing to'dasidagilar aralashib ketadi va chatishma nomini "turk" yoki "turkut" bo'lishiga olib keladi.

Bu so'zning taqdiri bizning mavzumiz uchun shu darajada muhim va zarurki, unga alohida e'tibor berishga to'g'ri keladi. *Turk* so'zi 1500 yil davomida bir necha bor o'z ma'nosini uzgartirgan. Aytilganidek, V asrda Ashina bek tevaragida uyushgan O'rda va VI- VIII asrlarda tarkib topib, turli tilda gaplashgan kichik bir xalq turk deb atalgan. Arablar O'rta va Markaziy Osiyoning barcha ko'chmanchi aholisini, tilidan kat'iy nazar turk deb ataganlar. Ular orasida birinchi bo'lib Rashididdin, til xususiyatlarini hisobga olgan bo'lsa kerak, turk va mo'g'ullarni farqlay boshladi. Hozirgi kunimizda esa "turk" atamasi faqat lisoniy tushuncha bo'lib, unda nafaqat etnografiyasi, balki kelib chiqishi ham hisobga olinmaydi (ayrim turki tilli xalqlar bu tilni qo'shnilaridan muloqot jarayonida o'zlashtirib olganlar). Atama bunday tarzda har xil qo'llangan holda aniqliklar kiritish talab etiladi. Ishimizda tarixi tasvir etilayotgan xalq, chalkashlik kelib chiqmaslisi uchun, VI asrda jujan va xitoylar atagani kabi turkut deb nomlanadi.

Mazkur Ashina nomi bilan birlashgan besh yuz xonadonning kelib chiqishi

qanday va qanaqa bo'lishidan qat'iy nazar, askariy muvaffaqiyat epkini ularni Xitoydan Oltoyga sudraguncha, ular o'zaro mo'g'ul tilida aloqa qilganlar. YUz yil davomida turki til muvaffaqiyat epkini ularni Xitoydan Oltoyga sudraguncha, ular o'zaro mo'g'ul tilida aloqa qilganlar. YUz yil davomida turki til muhitida yashash so'zlashuv nutqini tezlik bilan almashinishiga olib kelgan ko'rinadi, chunki "besh yuz xonadon" turk dengizi uchun bir tomchi suvday edi. SHuni esda tutmoq lozimki, VI yuzyillik o'rtalariga kelib Ashina urug'i a'zolari va ularning hamrohlari to'la turklashib bo'lgan va o'tmish mo'g'ul tillilikdan faqat unvonlaridagina asorat qolgan edi.

YUqorida aytilganlardan aniq ko'rinib turibdiki, turki tilli bo'lish va o'zlarini *turk//turkut* deb atagan xalqning kelib chiqishi boshqa-boshqa hodisalardir. Hozir turki deb ataluvchi tillar juda qadim zamonlarda tarkib topgan, "*turkut*" degan xalq esa Oltoy va uning tog'oldi mintaqasiga xos bo'lgan o'rmoncho'l maydonida etnik aralashish natijasida V asr oxirida bunyod bo'ldi. Kelgindilarning mahalliy aholi bilan chatishib ketishi shu darajada ediki, yuz yildan keyin - 546 yilda qadimgi turki yoki turkut deb ataluvchi "yagona va yaxlit xalq dunyo yuzini qo'rdi.

Turki til doirasi esa o'sha zamonlardayoq, Oltoydan ancha olis g'arbiy o'lkalarni qamrab olib. u erlarda guzlar, qanglilar, bajinak (pecheneg)lar, qadimgi bulgorlar va gunnlar yashar edilar.

I.3. Qadimgi turklar (turkutlar) yoxud Ashina urug'ining buyuk davlati tarixining o'rganilishi.

Qadimgi turklar (turkutlar) tarixining boshlanishi. Har bir xalqning tarixiy ildizlari juda qadim zamonlarga borib taqalsa-da, barcha davrlar tarixchilari xalqning vujudga kelganligini muayyan sanadan (albatta, o'z fikriga ko'ra) boshlashga intiladilar. Jumladan, rimliklarning tarixi boshi juda bir shartli bo'lib — Rim shahri asoslanishidan, arablar Muhammadning Makkadan Madinaga hijrati — aniq tarixiy faktdan, rus yilnomachilari 862 yilni tanlab olib, rus tarixini shundan boshlashiga ko'nikdilar, franzuz yilnomachilari boshlanish deb Xlodvig Merovingni olishsa, tarixchilari Ogyusten T'erri tashabbusi bilan Buyuk Karl

imperiya bo'lingan sana - 843 yilni oladilar. Turkutlar uchun ana shunday sana 545 yildir.

SHimoliy Xitoyda yangi urush avjida. SHarqiy Vey imperiyasi hukmdori Gao Xuan Jujan xoni Anaxuan va Togon shohi Kualyuy¹⁷ bilan ittifoqda G'arbiy Vey imperiyasiga hujum qilib, raqibi Yuyvin Tayni siqib qo'yadilar. G'arbiy Veyning imperatori Ven-di o'ziga tarafdorlar izlaydi va do'stlik munosabatlari o'rnatish niyatida An Nopanto degan kimsani turk Pegi Bumin¹⁸ huzuriga yo'llaydi.

Turkutlar dargohiga 545 yilda¹⁹ etib kelgan vakilni bu erda mxshi kayfiyat bilan kutib oladilar. "O'rdada hamma bir-birini tabriklab, bizga buyuk davlatning vakili keldi, endi bizning saltanatimiz ham tezda gurkirab ketadi," deyishardi. Ushbu arziyas bir voqea shuni ko'rsatadiki, jujanlar hukmronligi turkutlar uchun og'ir kechgan va ozodlik uchun kurashishdan ular cho'chimaganlar.

Xalqining xo'jasi bo'lmish jujan xonining rayiga qarshi, lekin xalq istagiga muvofiq ravishda Bumin G'arbiy Veyning poytaxti CHan'anga sovg'a-salomlar bilan javob elchiligi yuborib, xo'jayinining dushmani bilan itgifoqni mustahkamlaydi. Ammo bu jujanlar bilan munosabatning uzilishiga olib kelmaydi, zotan, muzokaralar nihoyatda maxfiy olib borilgan ko'rinadi. Bu elchilik turkut davlatining G'arbiy Vey va uning vorislari bo'lmish Bey-CHjoularning SHimoli-SHarqiy Xitoyga (bu erda 550 yildan Bey-Zi sulolasi o'rnatiladi) qarshi kurashida itgifokdosh sifatida chorak asrlik siyosatini boshlab berdi. Jahon siyosatiga kirib borar ekan Bumin ham o'zi xirojto'lab turadigan jujanlarga qarshi jangga kirishga ancha ojizlik qilishini anglardi. Bumin bir paytning o'zida ittifoqdoshlik va vassallik G'arbiy telelar Jujan hukmronligi ostida nihoyatda mushkul hrlatga tushib qolishgan edi. Nihoyat ularning sabr kosasi to'ldi, quzg'olon ko'tarildi, G'arbiy

¹⁷ Iakinf Bichurin, Istoriya Tibeta..., 85 -b.

¹⁸ O'rxun toshbitiklarida uni Bumin qog'on deb ataydilar (G. E. Grjimayloning "Istoricheskoe proshloe Bey-SHanya" SP 1898, ZVORAO, x'j., 1898, 358-6. asariga taqrizi)da V. Bartol'd va T. M. Melioranskiylar "Pamyatnik v chest' Kyul'- Gegina, 64-6., 94-95 b., uni Istamixon bilan bir shaxe deb hisoblashga uringanlar. Biroq Tomsen (Thomsen, Inscriptions de f'Orkhon..., 95-6), Markvat (J. Marquart, Historische J Lessen, 1851), Aristov (Zametki..., str. 9) va Trum-Grjimaylolar (Zapadnaya Mongoliya..., str. 219) ular xitoy manbalarchdagi Ilxon Tuminva SHetemi deb atayadigan ikki oia-ini ekanligini ajoyib bir tarzda isbot etdilar.

¹⁹ S. Julien, Documents..., Jot. 3, 329. N. YA. Bichurin 535 yilni ko'rsatgan, biroq bu sanani imperiya endigina parchalangan bo'lib, kuchlar munosabati hali noaniq bo'lganligi uchun ham uncha to'g'ri deb bo'lmaydi. Sanani 545-y. deb Liu Mau-tsai (Die chinesischen Nachrichten..., 6-6) ko'rsatgan.

Jungoriyadan jujanlar yuragiga zarba berish uchun Xalxa tomon yurdilar. YUrish shu darajada yomon tashkil etilgan, vaqt shunday bir noaniq hisoblangan ediki, rejali tashkillangan urushdan ko'ra, ko'proq sarosimaga tushgan ommaning tabiiy bir ko'tarilishiga o'xshardi. Qo'zg'olon rahbarlarining nomlari ham tarixda saqlanmagan. Telelar hali yo'lning yarmida ekanlar, Gobi Oltoyi daralaridan to'rtburchak zirhli sovutlarda o'tkir nayzalar tutgan, yaxshilab boqilgan otlarda saf tortgan turkutlar paydo buldilar. Telelar yondan beriladigan zarbani kutmagandilar, buning ustiga ularga hech qanday yomonlik qilmagan turkutlar bilan jang qilish xayollariga ham kelmagandi. SHuning uchun ular hech ikkilanmay, Bum i n ga to'liq tobelik bildirdilar. Bumin tobelikni qabul qilish bilan ikkinchi bor jujanlarning ra'yiga qarshi ish tutdi.

Dashtda bo'yinsunish ikki tomonga majburiyat yuklaydigan tushuncha. 50 ming o'tovni²⁰ o'z hukmida saqlash uchun o'sha o'tov ahlining istagiga binoan ish tutmoq lozim.

Telelar bir narsani - jujanlarni yo'q qilishni istardi, ularni o'z o'rdasiga kabul qilar ekan, Bumin buni bilgan bo'lishi kerak. Ayni chog'da buni uning kabiladoshlari ham xohlashgani uchun urushdan chekinib bo'lmas edi. Qo'l ostidagilarning istak-xohishi xonning ham istagi bilan uyg'un edi, shuning uchun voqealar shiddatli kechdi.

Jujanning tor-mor etilishi. Jujanlar bilan ixtilof keltirib chiqarishga intilib, ayni chog'da, aybdor bo'lib qolmaslik uchun Bumin ayyorlik yo'lga o'tdi. Jujan xoni Anaxuanga murojaat qilib malikani xotinlikka so'radi. Dasht odati bo'yicha, malikaga uylansa, xon bilan mavqei teng bo'lardi, xon esa o'z mavqeini yo'qotadigan bunday taklifga rozi bo'lmasdi. Xon qattiq g'azablanib qo'pol javob qaytardi: "Ey mening temir erituvchim (turkutlar jujanlar uchun temir eritishardi), sen qanday qilib menga bunday taklif bildirishga jur'at etding". Rad javobi bilan Bumin tahqirlandi-yu, aslida Buminga ham shu kerak edi. YArashish yo'llarini

²⁰ N. YA. Bichurin, *Sobranie Svedeniy...*, 1 j. 228 - b. Grumm Grjimaylo jujanlarga qarshi turganlar "parpurumlar" bo'lsa kerak deb talqin qiladi (*Zapadnaya Mongoliya...*, 220 - b), biroq chodirlar miqdori D. Pozdneevda (*Istoricheskiy ocherk uygurov*, 38-39 - b) keltirgan Markaziy Osiyo'da yashagan telelarning jami aholisi miqdori bilan teng keladi. SHuning uchun Bumin jujanlar halokatidan keyin Baykal va Kerulengacha tarqalib ketgan va o'sha vaqtgacha Jung'oriyada yashab kelgan tele qabilalari ittifoqini bo'yinsundirgan deb hisoblash darkor.

kesish uchun u Jujan elchisini dorga osishga farmon berdi, shunda G'arbiy Veyxonadoni bilan ittifoqlik ish berdi. Ven-di bilan muzokaralarni tezda tikladi va 551 yil yozida Xitoy malikasi CHanleni xotinlikka oldi, bu uning dashtdagi ko'chmanchilar orasida obro'sini ko'tarib yubordi. Bumin 552 yil qishida jujanlar ustiga yurish qildi va hujumni to'satdan uyushtirishi natijasida jujanlar ustidan to'la g'alabaga erishdi. Anaxuan o'zini o'ldirdi, uning o'g'li YAnlochen ittifokdoshlari zilar huzuriga qochib bordi.

Bumin "Elxon" unvonini qabul qildi, biroq 552 yil oxirlarida vafot etdi. Taxtga uning Qora Issiqxon unvonini olgan o'g'li o'tirdi.

Turkutlar tomonidan to'satdan mag'lub etilgan jujanlar o'lgan xoni o'rniga uning amakisi Dinshuzzini ko'tarib, kurashni davom ettirdilar. Biroq Layshan tog'iyonida bo'lgan jangda yana turkutlardan engildilar. Uzoqqa cho'zilmagan baxtiga qarshi Qora Issiqxon sirli ravishda o'ladi, uning o'g'li SHetu" taxtdan chetlatilib, o'rniga Qora Issiqxonning ukasi Kushu Mug'anxon laqabi bilan o'tiradi.

YAngi xon qat'iyatli, shafqatsiz, jasur, aqlli bo'lib, jangdan boshqa narsa bilan qiziqmas edi. 553 yilning kech kuzida u jujanlarni yana mag'lub etdi. Zi imperatori o'zining baxti qaro ittifokdoshlarini qanoti ostiga olib, quvib kelayotgan turkutlar shashtini qaytardi. Biroq jujanlar Xitoyda yashashga ko'nika olmadilar. Mol-mulkidan ajralgan, meqnat qilib yashashga o'rganmaganliklari uchun qaroqchilik yo'liga o'tdilar va Zi hukumatining 554 yil ko'klamida ularga qarshi qo'shin jo'natishdan boshqa chorasi qolmadi. Jujanlar engildilar. Lekin bu ularga saboq bo'lmadi, 555 yil yozida Zi imperatori ularni o'z hududidan dasht tomon haydab yubordi. Bu erda esa jujanlarni shu kezdayoq turkutlar va kidanlar yanchib tashladi.

Dinshuzzi o'rdasining qolgan-qutgani bilan G'arbiy Veydan boshpana izladi, ammo bu erdagilarda Zi imperiyasiga qarshi kurashish uchun ittifoqdoshga — turkutlarga muhtojlik bor edi. SHuning uchun turkut elchisiga uch ming oyoq-qo'li bog'langan jujanlarni tortiq qilishdi. Elchi barcha voyaga etgan asirlarning kallasini olishni buyurdi, ayni chog'da "bolalar hamda beklarga ergashib kelgan xizmatkorlarga" shafqat qildi. Jujanlar tugatildi va turkutlar Buyuk dashtning

shimoliy qismida yakka xo'jayin bo'lib oldilar. Jujanlarni qirg'in qilishdagi xizmatlari uchun turkutlar Vey G'arbiy imperiyasi bilan o'sha 556 yilning o'zidayoq hisob-kitob qildilar, Jujanlarning kallalari CHan'anning sharqiy darvozasi oldida dumalayotgan vaqtda, turkut - xitoy birlashgan qo'shini Togonga bostirib kirdilar, uning aholisi Nanshan tog'laridan panohtopishga majbur qilindi. G'oliblar Kualuy xonning qarorgohi joylashgan Kukunor tevaragidagi SHudun shaharchasi va Xemchen shaharchasini egallab oldilar. Keyingi yilda togonlar Xitoy erlariga hujum uyushtirib qasdini olmoqchi bo'ldilar, biroq qal'ani qo'lga kiritmay, chekinishga majbur bo'lishdi. SHimoldan kidanlarning (553 y.), janubdan Lyan shohligining hujumlarini (555 y.) qaytarishga bor kuchini sarflab sillasi qurigan Zi imperiyasi halok bo'layotgan ittifokdoshlariga hech qanday ko'mak ko'rsata olmay qoldi. Yuyvin Tayning o'g'li Yuyvin Zzyu muvaffaqiyatlardan ilhomlanib nasliylilik udumini chetga surishga jur'at etadi va Vey sulolasining so'nggi imperatorini taxtdan voz kechishga majbur etib, o'zi taxtga o'tiradi va yangi o'z sulolasini Bey-CHjou deb ataydi.

SHarqdaga urush. Jujanlarni bir yoqlik qilib turkutlar boshqa ko'chmanchi qo'shnilariga qarshi jiddiy harakatlar boshlashdi. 554 yil kichik bir beklikdan imperiya yaratilgan yil bo'ldi. SHimoldagi Zigu davlati bosib olindi. Xitoylar "Zigu" deb qirg'izlarnimi yoki chiklarnimi²¹ atagani ma'lum emas, turkutlar Sayanni oshib o'tolmagan bo'lsalar-da,²² Mug'an xon shimoliy chegaralarini o'sha vaqtdan boshlab ancha mustahkamlab oldi.

O'sha vaqtlarda sharqda uch qavm: xitoylar xi deb ataydigan tatablar, kidanlar va xitoy geograflarida SHivey deb nomlanuvchi o'tgiz tatarlar yashar edi. Uchala xalq ham mo'gul tilining shevalarida gaplashadiganlar bo'lib, turmushi, madaniyati yaqin bo'lishiga qaramay, muttasil o'zaro urush holatida edilar. Tatablar Xinganning g'arbiy yonbag'rida makon tugib, Bey-Zi bilan ittifoqdosh bo'lib kelgan. Kidanlar Lyauxe daryosining shimolidagi Manchjuriyaning cho'l mintaqasida yashaganlar. Ular tatablar bilan doimo urushib kelgan va o'z-o'zidan

²¹ G. E. Grulsh-Grijimaylo, Zapadnaya Mongoliya..., str. 222, 311

²² Qarang: J. Bacot, Recormaissance..., str. 146 Tibet matnlaridagi Zama kagan yoki Zama mogan degan ntyar Pel'atng zukkalik bilan atqaashicha Mutssondir (YAna o'sha erdagi 151-betga qarang). "Zama" degan ism "O'zmish" bo'yaishi mumkin emas, chunki u ku'

Bey-Zi bilan chiqisha olmasdi. 553 yilda Bey-Zining imperatori Vey-di kidanlarni tor-mor keltirib, bu qavmning kattta qismini bo'ysundirdi. Qolgan qismi yo Kogurio (Koreya) ga qochdi yoki o'sha kezlarda Sariqdengiz havzasigacha etib borgan turkutlarga taslim bo'ldilar.

Kidanlar ustidan qilingan g'alaba Bey-Zi davlatini kuchaytirmadi, aksincha, uning tashqi siyosiy holati yomonlashdi, chunki shimolda u turkut chegaralariga taqalib kelgan edi. Sanbiylarning qolgan qismini shafqatsiz ravishda qirib tashlash, buddizmni ochiqchasiga qo'llab-quvvatlash juda katta harajat talab etib, tashqi dushmanga qarshilik qilish salohiyatini zaiflashtirdi. Ayni chog'da turkutlar bilan itgifoq bo'lganligi, o'z askariy tabaqasiga suyanganligi uchun hamda budda va daos rohiblariga pul harajat qilmaganligi bois Bey-CHjou tobora mustahkamlanib, kuchayib bordi. 579 yilda imperator U-di buddizm va daosizmni man etish haqida buyruq berdi, Xitoyning VIII Henrisi bo'lmish bu imperator "Samo naeli" unvonini olib, taxtining ikki tomoniga Budda va Jiao-Zi haykallarini o'rnatadi va ular o'rtasiga o'tirib, itoatidagilarning ta'zimini qabul qiladi. Bu bilan u dinni hammaning ko'z-o'ngida obro'sizlantirmoqchi bo'ladi. CHjou imperiyasi G'arbiy Osiyoda ham mashhur bo'la boshlaydi, bu erdagi turli hukmdorlar u bilan aloqa o'rnatishga intiladilar. 553 yilda eftalitlardan, 555 yilda Erondan elchilar kelishadi. Togonlar yana bir bor faqat chjoularning o'z kuchlari bilan mag'lub etilgach, 559 yilda Gaochan (Turfon)dan, 561 yilda Kuchadan, 564 yilda Karashardan elchilar tashrif buyurishadi.

Bey-CHjou imperiyasining asosiy maqsadi sharqiy Bey-Zi imperiyasini yanchib tashlash edi, lekin bu imperiya ichki manbalaridan oqilona foydalanadigan bo'lsagina, mustaqilligini to'la saqlab qolish imkoniga ega edi. Masalaning echimi turkut xoni kimning tomonini olishiga bog'liq edi. 561 yilda har ikki tomon imperator Mug'anxonga elchilar jo'natib malikani o'zlariga so'rashadilar. Boy Bey-Zining tuhfa-sovg'alari masalani hal etishga bir bahya qolganida, CHjou elchilarining diplomatik ustaliklari Mug'anxonni ittifokdoshlik bitimiga sodiq qolishga majbur etadi. U sovg'a-salomni qabul qilmay, qabul qilinmagan boylikning o'rnini harbiy o'lja bilan qoplashga qaror berdi.

563 yilda ittifoqdoshlar qo'shinlari Zzinyan shahrini qamal qildilar, biroq qamalni oxiriga etkaza olmadilar va turkutlar o'sha erlarni talab, qadrdon dashtiga qaytdilar. Keyingi yilgi yurishda esa Loyan yonida CHjou lashkarining biri zilardan to'la mag'lub bo'lishi Mug'anxonning o'z qo'shinini orqaga qaytarishga majbur etdi. Ushbu muvaffaqiyatsizliklarga qaramay, Zi tomonidan taklif qilingan ittifoq tuzish haqidagi taklifni rad etdi. Buning sababi ittifoqdoshlik bitimiga binoan CHjou imperiyasi har yili turkutilarga to'lab turadigan 100 ming parcha ipak matolardir, deb bilmoq kerak.

572 yilda Mug'anxon vafot etdi. Uning vorisi va ukasi Toboxon CHjou imperiyasi bilan muloqotni to'xtatmay, Zi imperiyasi bilan bitam tuzadi. CHjou imperiyasi beriladigan to'lovdan yuz o'girishga jur'at etgan chog'ida turkutilarning bir marta harbiy namoyish o'tkazishining o'ziyoq va'daga vafo qilib, to'lovlarni vaqtida to'lash majburiyatini qayta bo'yniga olishga etarli bo'ldi. Zi imperiyasi esa, turkutilarning bosqinidan qo'rqib, tinchlik uchun tuhfa berib, xazinasining barakasini uchirdi. "Bizga janubdagi ikki bola (CHjou va Zi) itoatda bo'lsa bas, kambag'allikdan qo'rqmaymiz" derdi Toboxon.

Zi imperiyasi bilan ittifoq turkutilarning Xitoy bilan madaniy muloqotiga yo'l ochdi. Toboxon qarorgohida buddaviy rohiblar paydo bo'ldi va xonni o'z dinlariga kiritdi. Budda tashviqotchilari buddizmning boshqa dinlardan ustunligini jo'ngina qilib isbotlar, Budda qonunlariga amal qilgan Zi imperiyasining boyligi va qudratini dalil keltirar edilar. Sal keyinroq Zi imperiyasining engilishi turkutilarning buddizmga bo'lgan hurmatiga putur etkazdi va Suy sulolasi taxtni egallagach 581 yilda buddaviylar Xitoyga qaytish zo'rida qoldilar.

576 yilda chjoular zilarni mag'lub etib. Pxin'yan shahrini egallashga muvaffaq bo'ldilar. Zilar shaharni kdytarib olishga urinib ko'rishdi, biroq omad chopmadi va Echen shahrida qamalda qolgan imperator, ushbu shaharni taslim qilishdan oldpn Gao YUan-zzun foydasigataxgdan voz kechdi, 577 yilda Gao YUan-zzun ham asir olindi.

Tor-mor etilganiga qaramay, Tayyuan shahrilik Gao Bao nin degan kishi yiqilgan sulolaning serg'ayrat himoyachisi sifatida maydonga chiqdi. 576

yildayoq, hali mag'lubiyatdan oldin u hozirgi CHaxar o'rnidagi Inchjou chegara qal'asining qutvoli etib tayinlangaz edi. Qisqa muddat ichida Gao Bao nin nafaqat xitoylarning, balki ko'chmanchilarning ham hurmatini qozondi. Bu holat mag'lubiyatdan keyin uning mustaqil ish yuritishiga imkon yaratdi. Gao Bao nin subutsiz siyosiy shuhratparast emasdi. unda SHimoliy Xitoyni qayta tiklanishi uchun zarur bo'lgan burchga sadoqat, vatanparvarlik, kurashda qat'iyat kabi axloqiy xislatlar mujassam edi. U g'oliblarning ehtirom bilan taslim bo'lish taklifini rad etdi va o'zini Zi sulolasining turkutlarga qochib ketgan so'nggi vakili Gao SHao-ining tarafdori deb e'lon qildi. Mana shu xizmati uchun unga kanzler rutbasi berildi (bu mansabni egallay olish imkoni yo'q edi, albatta). Bey CHjouning haddan tashqari kuchayib ketishidan o'zicha hadiksiragan turkut xon i mag'lub bo'lgan sulola tomonini oldi. Bu ittifoqqa o'z imperatoriga qarshi isyon ko'targan, Fan'yanda (Pekin tevaragida) mustahkam o'rnashib olgan sarkarda Lyuy CHjan zzi ham qo'shildi.

Gao Bao nin qo'l ostvdagi barcha kuchlarni tezda safarbar qilib, Gao SHaoi tarafini oldi. Biroq u kechikdi. Uning lashkari endi Lyaoxe daryosi qirg'oqlariga etganda, Fan'yan vayron qilingani va qo'zg'olon bostirilgani haqidaxabar keddi. Gao SHao i turkutlarga qaytdi, Gao Bao nin o'z viloyatida mustahkamlanib oldi.

Bey CHjou uchun eng dahshatli dushman turkutlar bo'lib chiqzi. 578 yilda Toboxon Xitoyga bostirib kirdi va CHjou qo'shinini qirib tashladi. 579 yilda boshlangan muzokaralar to'xtatilib, davom ettirilgan harbiy harakatlar turkutlarga zafarli bo'ldi. Ammo Xitoy elchisi sovg'a-salomlar bilan Toboxonni o'ziga ag'darib olishga muvaffaq bo'ladi va 580 yilda tinchlik bitimi tuzilib unga binoan Gao SHao-i CHjou davlatiga topshirilib, poytaxti CHan'anga keltiriladi. Gao SHao-i Sichuanga surgun qilinadi va o'sha erda olamdan o'tadi.

580 yil turkut qudratining cho'qqiga ko'tarilgan yili bo'ldi. 581 yilda Toboxon vafot etadi. Xitoyda CHjou sulolasini ag'darib, Suy sulolasiga asos solgan harbiy general YAn Zzyan turkutlarni o'lgudek yomon ko'rardi, bu o'z navbatida siyosiy vaziyatni o'zgartirib yubordi. O'z dushmanlaridan ancha ko'p

yashagan Gao Bao nin CHaxarda mustaqil bek bo'lib qoladi va turkut xonlari bilan ittifokda yashaydi.

G'arbdagi urush. SHarqiy chegaralarda faollik ko'rsatayotgan turkutlar ayni chog'da g'arbga ham yurishlar uyushtirib turardilar. Afsuski, bu nihoyatda muhim voqealar manbalarda etarlicha yoritilgan emas, biroq, shunga qaramay, voqealar jarayonini umumiy tarzda bayon qilish mumkin.

G'arbga harbiy yurishlarni Buminning ukasi Istami qoon boshqargan. Oldingi yurishlarda Istami qoon Bumin bilan birga asli ugorlardan bo'lishi ehtimol bo'lgan SHimoliy Oltoy qabilalarining o'n nafar oqsoqollari ustidan qo'mondonlik qilgan. Ularning hozirgi nasllari turklashib ketgan shorlar, kumandilar, ku kiji (lebedin)lar va boshqalardir. Istami xonning ismi ham turki emas. By ism ugorcha bo'lib bobolar ruhining nomlanishidir. Xitoylar uning askari sanog'ini 100 ming deydilar, lekin bu raqam askarlarning haqiqiy adadini emas, balki sarkardaning rutbasini ifoda etadi. Bu rutba eng oliy bo'lib bu raqam uning "bahodir jabg'u"²³ unvoniga muvofiqdir.

Istami o'z askariy yurishini 552 yildan ancha keyin boshlagan, chunki mazkur yilda abarlar hali mustaqil qabila bo'lib, Buminning²⁴ dafn marosimiga tortiqlar junatishgan. Bu yurish 553 yil kuzida — jujanlar uzil-kesil tor-mor keltirilgandan keyin bo'lgan ko'rinadi. YUrish boshlanishining eng ishonarli sanasi 554 yilning bahori bo'lishi kerak. CHunki bu paytda jujanlar tumtaraqay qilingan, otliq askarlar uchun eng muhimi — dasht o't-o'lanlar bilan qoplangan edi.

YUrishning shiddatiga qaraganda, turkutlar jiddiy bir qarshilikka duch kelmagan. 555 yilda ularning qo'shini "G'arbiy dengizga" etib boradi. "G'arbiy

²³ Bahodir — mu gul so'zi, IV asrdayoq turki tillarga o'tgan. YA thy — hoqop xrit'yusari e Qarang: L. N. Gumilev, Udel'no-lestvichnaya sistema, 24-6).

²⁴ Istomi trbga yurishda akasini kuzatib borgai, degan fikrni bildirgan SHavann adashgan edi. Binobarin, SHavann zamonasida "arag" etnonimi tarkibi aniqlanmagan va ikkiti etnonimiy "apurirn" qismi bilan "apar-apurim" tarzida qo'ishb o'qilardi (P. M. Melioranskiy, Pamyatnik v chest' Kul-Tegina, 45-6. Radioff, Die altturki.vchen inschriften, 1895, 429-6.). Radlov hatto bu etnik namni tele qabilasidan bo'lmish fufolo nomi bilan qiyoslagan ham. Masalash turk pishi Bahaedden Oqehtune "Kokturs yazjtlarinen " Apurim lari ve "Fu-lin " prollemi, Bellten IX, Ns 33 (Turk tarix jamiyatining jurnali) degan maqolasi xal qildi. Bunda "apurum" "Rum" ya'ni Vizantiya nomi janligi isbot eti/di. Ushbu va boshqa tadqiqotlar tufayli g'arbga yurishning sanalarini aiiqlash imkoni yaratildi. Bu o'z navbatida SHavannning bir paitning o'zida turk xalqining garbiy va sharqiy tarmoqlari bo'lgan degan farazini kun tartibidan olib tashladi. Istomi trbni istilo qilish uchun jiyani Muganxonning yab/usi sifatida otlandi. "Kultegin katta toshbitigida"har ikki qardoshni sharqiy turklarning ajdodi sifatida tilga pyainishi, qadimda buxalqning ikki tarmosh bo'lganligini inkor qwiadu. Bo'linish esa VII yuzyillikda sodir bo'ldi. Qanday vaziyatda bu bo'linish sodir bo'lgashigit quyida bayon qilamiz.

dengiz” deb Kaspiy dengizini emas, Orol dengizini tushunmoq kerak, binobarin Firdavsiy Istami saltanatining chegaralarini quyidagicha ta’riflaydi: “CHindan (Xitoydan) Jayxungacha (Amudaryogacha) va CHochning narigi tomonidagi Gulzariungacha (Sirdaryogacha)”.

Ushbu iqqibosga asoslanib 555 yilgi chegaralarni ancha aniq belgilashimiz mumkin: chegara chizig’i Toshkentdan sal shimolrokdan, Sirdaryoning shimol tomon burilish nuqtasini kesib va kenglik (jug’rofiy) yo’nalishida Amudaryoning kuyilishi va Orol dengizining janubiy qirg’oqlari bo’ylab o’tgan. So’g’diyona va Buxoro o’sha vaqglarda eftalitlarga bo’ysunardi, tabiiyki turkutlar ular bilan to’qnashadilar.²⁵ SHunday qilib turkutlar bir yarim yil ichida butun Markaziy Qozog’istonni, Ettisuvni²⁶ va Xorazmni²⁷ ishg’ol qiladilar.

Biroq undan uyog’iga yurish og’irlashib bordi. Orol dengizining shimoliy qirg’oqlarida turkutlar xuni (xionit), var²⁸ va ogor qabilalarining qarshiligiga duch kelishdi. Faqat 558 yilga borib bu qabilalar mag’lub etildi va turkutlar bo’yin egishni xohpamagan qavmlarni oldiga solib quvlagan holda Volga daryosiga etib kelishdi. Bu qochqinlar var va xuni qubilalari qoldiqlari bo’lib, adadi 20 ming kishini tashkil etadi va keyinroq avar²⁹ nomi bilan yagona qavm bo’lib uyushadi.

Turkutlar Uraloldi cho’llarini zabt etish bilan qanoat hosil qilib, Volga daryosini kechib o’tmadilar. Istamining g’arbga yurishi shuning bilan chegaralandi. To’rt yil davomida erishiltan zafarlar hoqonlik oldiga qator siyosiy yangi masalalarni qo’ydi.

Osiyoning bugun dashtini qamrab olgan yangi saltanatning paydo bo’lishi Xitoy, Vizantiya va Eron diplomatiyasi uchun kagga bir ahamiyatli omil bo’ldi. Asosan, Vizantiyaning uzoqni ko’zlagan va nozik siyosati tufayli VI yuzyillikning 50-yillari oxirida Qora dengiz bo’yida siyosiy vaziyat ancha murakkab va keskin

²⁵ Bu hodisa faqatgina Gan-muda qayd etilgan (Krrang: Iakinf, Istoriya Kitaya).

²⁶ Dulu, nushibi kabi chu guruxiga mansub o’sha erda yashovchi uabilalar ham turkutlar bilan bir xil odatlarga ega bo’lib, tip jihatidan kam g’yur/o’-yunar edi (E. Chavannes, Documents..., 47-6).

²⁷ Turkut xoniga bo’sundirilgan qabilalar orasida xaliatlar (Menandr, 381-6.) ham tipga apmadi. Ular rus yilnomalaridagi xvalislar bilan, tabiiyki, bu orqayu xorazmiylar bilan aynanlashtiriladi (S. P. Taktov, Novogodnyy prazdnik “Kalandae” ..., 95-6).

²⁸ Var yohud uarlar — xionitlarning qo’tnilari, u gor qabilalaridan (Qarapg: Feofilakt Simokatta, Istoriya, 160-6).

²⁹ Feofilakt Simokatta o’quvchilarini bu “soxta avarlar”ni “asl avarlar”, ya’ni Markaziy Osiyoda yashagan abarlar bilan chalkashtirib yubormaslik kerak, deb ogohlantiradi. Bu muammo davomli mushohadalarga manba bo’ldi (Qarang: M. I. Artamonov, Istoriya xazar, 64-65-6).

edi. Quyi Dnepr va Don pasttekisliklari bulg'orlar toifasidan bo'lmish kuturgurlar tomonidan egallangan bo'lib, ularning qarindoshlari uturgurlar Kubanda yashardilar. Kuturgurlarning Frakiyaga bosqinidan zada bo'lgan Vizantiya tortiqlaru elchilar vositasida ugurgurlarni kugurgurlarga gigijlardi. YUstinianning usgamonlik bilan tutgan siyosati bu ikki qardosh qabilalarning bir-birini mutlaqo qirib tashlash darajasiga olib keldi.

Uturgurlardan sharq tomonda, Kuma daryosi havzasi va Dog'istonda o'ta jangari qabila — sabirlar yashardi. Sabirlar Vizantiya-Eron urushida dastlab Eron tomonida, so'ng esa unga qarshi faol ishtirok etgan edi. 552 yilda ular Agvaniyani bosib oladilar, biroq 554 yildayoq forslardan zarba eydi.

Kyban bo'ylarida Vizantiyaning sodiq ittifoqdoshlari alanlar istiqomat qilardi. YUnonlar aynan alanlar orqali yangi varvar qavmi — avarlar paydo bo'lganligi daragini olganlar.

Avarlar Qora dengiz bo'yida. Turkut bosqinidan qochayotgan avarlarning ahvoli bir qaraganda mutlaqo umidsiz ko'rinardi: ta'qib qilib kelayotganlar ulardan ancha qudratli edi, oldinda kuchli, ko'p sonli va boy, ko'p janglarda zafar nashidasini totib qo'rgan qavmlar turardi. Avarlar esa qashshoq qochoqqar bo'lib, vatanidan va uyurlaridan mahrum etilgan edilar. Qanday qilib ular omon qoldilar, omon qoldilargina emas, qanday qilib zafar qozondilar kabi savollarga o'sha zamondagi siyosiy ahvolni sinchiklab kuzatibgina javob topish mumkin.

Avarlar oldida turgan eng birinchi vazifa ta'qibchilar ta'qibidan qutulish edi. Ular bunga fyaqatgina O'rta Osiyoda o'sha chog'larda efgalitlar jonlanib, Istami e'tiborini o'ziga qaratgani natijasida erishdilar. Bu haqda Istaming gapi qiziqdir: "Avarlar kush emaski, osmonga uchib turk qilichidan qutulib qolsa, ular baliq emaski, dengiz qa'riga sho'ng'ib ko'zdan g'oyib bo'lsa, ular er ustida tentirab yuradilar. Eftalitlarni bir yoqpiq qilay, keyin avarlar ustiga bostirib boraman, ular mendan qutulib keta olmaydilar".

Istami eftalitlarga qarshi jiddiy harakatlarni faqat 561 yildan, ya'ni Xusrav Anushirvon YUstinian bilan tinchlik bitimi tuzib, e'tiborini sharqqa qaratish imkoniga ega bo'lgandan so'ng boshladi. O'rta Osiyoda uzil-kesil tinchlik 571

yildagina o'rnatildi va turkutlar qilichini yana g'arbga qarata oldi, biroq avarlar o'zlariga berilgan tanaffusdan shu darajada unumli foydalana bildilarki, ularga Istaming qo'li etishi mushkullashib qolgan edi.

Turkutlar ta'qibidan qutulgan avarlar ittifoqchi izladilar. Ular alanlarning sardori Sarosiydan Vizantiya bilan yaqinlashish- lariga vositachilik qilishni so'radilar. Sarosiy³⁰ iltimosni qabul qiladi va avarlar elchisining Lazikka etib olishiga ko'mak beradi. Bu erdan Konstantinopolga kuzatiladi va manzilda esa unga ishonqiramay, biroz yoqgirmay muomala qiladilar. SHunga qaramay, YUstinian Valentin boshchiligida javob elchiligi yuboradi. Valentin avarlarga tuxfa keltiradi va imperiya dushmanlarining o'sha kezdagi eng kattasi bo'lmish Eronga qarshi harbiy harakat qilishga undaydi. Bu ittifoq 558 yilda tuzilgan edi. Lekin avarlar Vizantiya dushmanlariga emas, balki uning ittifoqchilariga qarshi hujum boshladi.

Ularning dastlabki qurboni sabirlar bo'ldi. Sabirlar yangi qavm bo'lmish "var"larni ularga V asr o'rtalarida o'nglanib bo'lmas darajada zarba bergan asl osiyolik avarlar (abar) deb qabul qiladilar. Aynan mana shu vahima sabirlar mag'lubiyati, avarlar zafariga sabab bo'ldi. Tildagi kichik bir xato taqdiri o'zgartirib yubordi. Sabirlardan so'ng uturgurlar - imperiyaning sodiqittifoqchisi — boshiga musibat yog'ildi hamda Quyi Donning chap qirg'og'i bo'ylarida yashovchi zallar ham avarlar oldigatushib qochdi. Undan keyii avarlar Donni kechib o'tib antlar ustiga yopirildi va ularni bittasini ham qo'ymay qirib tashladi. Kavkazda biroz muddat alanlar avarlarni qo'llab turgani kabi vazifani Qora dengiz bo'yida kuturgurlar o'z zimmasiga oldi. Garchi yozma manbalar avarlar bilan kuturgurlar orasida ittifoqtuzilganini aniq bitmasada, voqealar jarayoni, bilvosita ma'lumotlar ana shunday ittifoq bo'lganligini ko'rsatadi.

551 yildan 558 yilga qadar kuturgurlar Vizantiya chegaralariga qadam qo'yishga jur'at etishmagan. Buning sababi Vizantiyaning nozik diplomatiyasi natijasida kuturgurlarning shimoliy chegarasiga uturgurlar xavf solib turishi,

³⁰ G. V. Vernadskiy taxminicha, bu chem emas, balki "sari-os" ("oslar yo'l boshchisi" degan ma'npdagi u/shpndir). G. Vernadsky, *Ancient Russia?* 194-6

g'arbiy chegaralariga esa Qora dengiz bo'yi shimolidagi o'rmon-cho'l mintaqasi bo'ylab istiqomat qiluvchi ko'p sonli ant qabilalarining tahzidi edi. Menandrning yozishicha, avarlar "utugurlar bilan urush boshladilar", so'ng bosqinlar qilib, antlar erini yakson qildilar. "Antlarning hokimlari qashshoqlantirildi, hatgo umid qilishdan ham mahrum qolishdi". Taassufki, Menandr antlar qanday umidlardan mahrum qolganini yozmaydi, umuman, Menandr xabarlarini anchagina mujmal bo'lib, uning avar - Vizantiya muzokaralari natijasi haqidagi xabarlarini tanqidiy nazardan qayta ko'rib chiqishga to'g'ri keladi.

Valentin yuborgan elchilikdan so'ng avarlar sabirlar, uturgurlar, antlar kabi aynan Vizantiyaning ittifoqchilari ustiga yopiriladi. Bu hatti-harakatlar Vizantiya manfaatlariga qarama-qarshi bo'lganligi bois ham vujudga kelgan sharoitdan Eron foyda ko'rardi.

Biroq kuturgurlar etakchisi Zabergan yunonlarning dushmani yoo'lib, Vizantiya va uning ittifoqchilari: uturgur va antlar bilan kurashish uchun yangi ittifoqchi topilishidan behad xursand bo'lardi. Haqiqatdan ham, avarlar uturgurlarni yakson qilib, kuturgurlar jabha ortini xatardan xoli qilgan zahotiyuq Zabergan Balqon tomon yangi yurish uyushtirib Konstantinopol kentdevorigacha etib bordi. Ayni chog'da Konstantinopolga avarlar elchilari ketidan turkutlar elchilari etib keldi va ular yaxshi kutib olindi (558 y.). Yunon-avar munosabatlari so'vishida buning ham ahamiyati borligi etibordan xoli emas.

SHunday qilib, 558 yilda Vizantiya imperiyasi uchun yangi qudratli dushman paydo qilib va xavfli qo'shnilarini o'z chegaralaridan Bolqon tomon kuzatib fors diplomatiyasi katta g'alabag'a erishdi. Keyingi voqealar asnosida ma'lum bo'ldiki, fors-avar ittifoqi to 628 yilgacha davom etdi, bu ittifoq Vizantiya imperiyasini kulatishiga sal qoldi.

Antlar avarlarga asosiy vazifalaridan biri asirlarni to'lov berib qaytarib olish bo'lgan Mezamirni elchi qilib yuborib, ular bilan kelishishga intilishdi. Avarlar huzurida Mezamir o'zini shu darajada noshud* mag'rur tutdiki, elchilik maqomiga ham qaramasdan avarlar uni o'ldirishdi. Elchini o'ldirgach, avarlar antlarni talash va qullarga aylantirishda davom ettilar.

Kuturgur sardori Zabergan qudratli ittifoqchisiga tayanib, sharkdan unga hech kim tahdid eta ol masligiga ishonch hosil qiddi va sklavinlar bilan ittifoq tuzib Vizantiya erlariga bostirib kirdi. 559 yil mart oyida u Dunaydan muz ustidan o'tib lashkarini uch qismga ajratdi: biri Makedoniya orqali Elladaga qarab yurdi va Fermopilamga kirib bordi, ikkinchisi Frakiya Xersonesini qo'riqlaydigan istehkomlarga tahdid soldi, uning o'zi boshqargan uchinchi qism Uzun devorning zilziladan zaxm etgan, loqaydlarcha tiklanmay qolgan joyidan imperiya ichkarisiga suqilib kirib oldi.

Konstantinopolliklarni vahima bosdi, hamma unugib yuborgan keksa harbiy qo'mondon Velizariy safarbar qilindi, u varvarlarni noytaxtdan uloqtirib tashladi. Boshqa bo'laklari ham mag'lub etildi. SHunda ham Zabergan Frakiyada qarorgoh bunyod qilib, tevarak-atrofni talashda davom etdi. Bu holat ularga ham uturgurlar kabi "tuhfalar" va'da qilinib, katta miqdorda pul to'lanmaguncha davom etdi. Ana shundan keyingina kuturgurlar Frakiyani tashlab chiqishdi.

YUstinian uturgurlar sardori Sandilx bilan shoshilinch xabarlashdi va uturgurlar Frakiyadan qaytayotgan kuturgurlarning bir bo'linmasiga hujum qilib ularni qirib tashladi hamda Sandilx qo'lga kiritgan o'ljalarni yunonlarga qaytardi. Ana shu voqeadan keyin bu ikki qavm orasidagi urush ularning har ikkalasini ham toliqgirib qo'ydi, bu avarlarga juda qo'l keldi.

565 yilda imperiyani qudratli deb o'ylab II YUstin avarlarga to'lovni to'xtatib qo'ydi. Biroq avarlar qudrati oshgandan oshib borardi. 565 yilda ular Tyuringiyani yanchib, frank qiroli Sigezbert bilan urush olib borar va qo'li baland kyolayotgan edi. 567 yili avarlar langobardlar bilan ittifoqqa Vizantiyadan madad olayotgan gepidlarni tor-mor etib Tissa vohasini egalladilar.

Langobardlar Italiyaga ketganidan bir yil o'tgach, avarlar butun Pannoniyaning egasiga aylangan va Markaziy Evropani dahshatga solardi. Ularning saltanati tarkibida avar xoniga s|o'zsiz bo'ysunadigan antlar, g'arbiy slavyanlar va kuturgurlardan iborat yordamchi qo'shinningham borligida edi. Avarlarning birinchi xoni Bayan 568 yilda Vizantiyaga dag'dag'a qilib shunday deydi: "Men

Rim erlariga shunday kishilarni yuboramanki, ular bitta qolmay qirilib ketsa ham men uchun baribir” va bosqin uchun 10 ming kuturgurni yuboradi.

Bayon etilgan hodisalar VI asr 60-yillaridagi xalqaro siyosatning harakatga keltiruvchi kuchlarini namoyon qiladi. Eron va Vizantiya bir-birlariga ashaddiy dushman edi. Avarlar Vizantiyaning dushmani sifatida Eron bilan itgifoqchi bo’lishi zarur bo’lsa, avarlarning dushmani turkutlar Vizantiya bilan juda yaqin munosabatlarda bo’lishi mumkin edi.

Kuchlarning bunday joylashuvini Eron va turkutlar dushmani eftalitlar davlati mavjudligi murakkablashtirib turardi. SHuning uchun ham Istamixoniga YUstindan ko’ra Xusrav Anushirvon bilan ittifoqchi bo’lish zarur edi. 560 yil atrofida forslar va turkutlar hujumkor ittifoq tuzishadi: birinchilari “shoh Parviz uchun xun olishni” istashsa, ikkinchilari Sug’diyonaning gullab-yashnagan shaharlariga ega bo’lish niyatida edilar.

Eftalitlar ikki jabhada emas, hatto uch jabhada urush olib borishga majbur bo’ldilar. Eftalitlar shoxi Mixirakula Kashmir va Panjobning egasi sifatida hindlar bilan ham qattiq janglar olib bormokda edi.

Eftalitlarning tor-mor etilishi. Sosoniylar Eronining sharq o’lkalarida yurgizgan siyosati uncha yaxshi o’rganilmagan bo’lsa-da, manbalarda yakkam-dukkam uchrab turadigan xabarlarining o’zi ham tadqiqotchida bu siyosat juda nozik va zukko bo’lganligiga qanoat hosil qilish uchun etarlidir. Jumladan, Eron SHimoli-SHarqiy Xitoyning kuchaya boshlaganini darrov payqaydi va 556 yildayoq CHan’anga elchilik yuboriladi. Elchilik ayni chog’da turkutlarga ham yuborilgan bo’lib (tabiiyki, ular Xitoy elchilaridan oldinroq etib kelgan), Istamixonning qizi va Eron shohi nikoxi bilan mustahkamlangan ittifoq tuziladi.³¹

³¹ Firdavsiy 6u nikoh 509 yildan keyin, ya’ni eftalitlar tor-mor keltirilgach, bo’lgan deb hisoblaydi, lekin turk qizining o’li IV Xurmuzd taxtni 579 yilda egallaydi ea o’g’li o’spirin bo’lgan chotda — 590 yilning 6 fevralida taxtdap tushiriladi. (Sebeos, Istoriya imperatora Irakla, 34-6. I. V. Pigulevskiy, Vizantiya i Iran, 68-6). SHavann ham bu kechiktirilgan sanani inkor qilgan edi. (Documents. 299-6.) Tabariy bo’yicha esa nikox ha», ittifoq ham eftalitlar bilan urushdan oir yil avval bo’lib, bu urush xitoy manbalariga muvofiq 555 yilda boshlangan. Xitoylar bu darakni Eron elchilaridan olgan bo’liitri ehtimol. Bu sana Istamixonning trbga yurish boiglash vaqtiga to’/ri keladi va Xurmuzdning yoshi masalasi ha^ shubha tugdirmaydi, u halok bo’lgan chotda yoshi 36 da bo’lib, bu vaqtda uning o’g.sh 16-18 yashar yigit bo’ladi (qarang: Th. Noldeke, Geschichte der Perser und Arales, 87-6; Tabari, Zotenherg, 161-162-6.). Elchilar haqida Belazuriy va Ibn Xo’rdadbs.gyaar ham darak beradilar-u, biroq ularning bayoni ancha galiz va ishonish qiyin bo’lgan bayonlardir (qarang: A. Chzjstensen, L ”Uan sous lex Sassanides, 1944, 380-6).

Eftalitlar ittifoqchisi bo'lmish jujanlardan mahrum bo'lgach, sarosimaga tushib, 553 yilda Xitoy bilan muloqot o'rnatishga intiladilar, biroq G'arbiy Vey imperatori Yuyvin Tay turkutlar bilan ittifoqchi bo'lgani uchun ham eftalitlar taklifiga e'tiborsiz qaragan bo'lsa kerak. Eftalitlarning o'z orasida ham hamjihatlik yo'q edi. Davlat arkonlaridan biri Katulf shoh Gatifarni urush qilishiga qarshilik qilardi, ammo oqibatda haqoratlangan kishi sifatida o'z qavmini sotib Eron shohi huzuriga qochib ketdi. Jiddiy harbiy harakatlarni 560 yilda shoh Gatifarning o'zi boshlab yubordi. Hoqon va shahanshohning o'zaro yaqinlashuvidan hadiksirab, bunday yaqinlashuvga imkoni boricha to'sqinlik qilmoqchi bo'ldi. Sug'd hududidan o'tayotgan turkug elchiligining hamma a'zolari, bir nafar otliqdan boshqasi, qirib tashlandi. Qochib kutulgan suvori bu mash'um xabarni Istamixonga etkazdi. Isgamixon mavjud barcha qo'shinlarni safarbar qildi, ularning orasida avval eftalitlarga qaram bo'lgan xo'tanliklar ham bor edi. Xusrav Anushirvon ittifoqchisidan oldinroq harakat boshlab, 562 yilda³² eftalitlarni mag'lub etdi, biroq urush bu bilan tugamagandi.

Turkut ilg'orining birinchi qurboni CHoch (Toshkent) bo'ldi, bu erda turkutlar qatliom uyushtirdi. Keyin CHirchiq daryosidan o'tgan turkutlarning asosiy kuchlari Maymurgda³³ o'z ilg'ori bilan ko'shildi.

Eftalitlar Buxoroga hamma kuchlarini to'pladi, biroq Gatifar turkutlarning ajoyib otliqlari tekislikda ustunlikka ega bo'lishini o'ylab, jangni Nasaf (Qarshi) da tog'li joyda qabul qilishni lozim topdi.

Firdavsiyning yozishicha turkutlar bostirib kelar ekanlar sug'udlar ko'p yig'lardilar, biroq eftalitlar uchun jang qilishni istamas edilar. Nasaf yonidagi jang sakkiz kun davom etib, eftalitlarning to'la-to'kis mag'lubiyati bilan tugadi (565 y.). Omon qolganlar Eftalit davlatining mustaqil yashash kuni tugaganligini fahmlab, Gatifarni ag'darib, uning o'rniga CHag'oniyon begi Fayunishni shoh etib sayladilar va turkutlarga qarshi tura oladi, deb o'ylab, unga Xusrav Anushirvonga bo'ysunish majburiyatini yukladilar.

³² Menandr, 317- 6. Vivien de Saint Martin (Les Huns blancs..., 72 - 6) da yuqoridagiga yaqin — 563 yil sanasi beriladi.

³³ Maymurg'-Zarafshonning janubida, Samarkand viloyatidagi beklik (V. V. Bartol'd, Turkestan..., 95-b).

Bir paytning o'zida hoqonning xati va Fag'onishning tobelik haqidagi taklifini olgan Xusrav na unga va na bunga javob berdi. Arboblarning g'arbiy chegaralar bo'sh qolishidan cho'chib qarshilik qilishiga qaramay Xusrav o'zi boshchi bo'lib butun qo'shini bilan Xurosonga yurdi. Umumiy dushman bartaraf qilingach, ittifoqchilar dushmanga aylanishdi. Umumiy dushmanni yo'q qilish zarurati parda misol to'sib turgan Hoqon va Eron orasidagi kelishmovchiliklar endi ochilib qoldi. Bu kelishmovchiliklar juda chuqur ekan, hatto chiqishtirib bo'lmas darajada edi.

O'rta Osiyoda hukmronlikka qurol kuchi va shafqatsizlik natijasida erishgan eftalitlar bu mamlakatlar aholisi nazdida obro' qozona olmadilar.

O'rta Osiyo uchun VI yuzyillik iqtisodiy va madaniy yuksalish asri bo'ldi. SHaharlar boyidi, o'sdi, ziroat, hunarmandchilik va savdo gullab-yashnadi. Sug'udlar bu zamonda tajribali vositachi savdogarlar sifatida o'zlarini ko'rsatdi. Ular Xitoy va O'rta Er dengizi orasida muloqot o'rnatdilar, buning uchun qadimiy karvon yo'llaridan foydalanishdi. Ammo muntazam tijoratga jujanlarning qaroqchiligi, eftalitlarning qo'shnilari bilan tinimsiz urush olib borishlari halaqit berardi. Sug'diyona va dashtni birlashtirgan turkutlar savdo uchun keng imkoniyatlar yaratishdi, sug'ud savdogarlari turkut xonining sadoqatli fuqarolariga aylandi. Turkutlarga ham ana shunday o'zlariga moyil fuqarolar zarur edi. SHu tarzda O'rta Osiyo hoqonlikning ajralmas bir qismiga aylandi. Vujudga kelgan vaziyat eftalitlarning intiqom olishiga yo'l bermadi va ular o'zlari joylashgan tog'lardan nari siljiy olmadilar, ulardan sog' qolganlarining nasllari hamon o'sha erlarda yashamoqdalar.³⁴

³⁴ L. N. Gumilev, Eftaliti..., 129-140-6

II-BOB. Qadimgi turklar davlatida siyosiy va ijtimoiy munosabatlarning o'rganilishi.

II.1. Qadimgi turklar davlatida siyosiy munosabatlar tahlili.

Karvonli tijorat. Eftalitlar va SHarqiy Xitoy podsholigini tor-mor keltirgan turkutlar faqat siyosiy jihatdan emas, balki iqqisodiy jihatdan ham qudratli bo'lib olishdi. CHunki G'arb bilan SHarqni bog'laydigan karvon yo'li ham ularning qo'l ostida edi.

Bu yo'l CHan'andai boshlanib, Nanshan tog'lari yonbag'ri bo'ylab tog' cho'qqilaridan oqib tushadigan soylar suvi bilan sug'oriladigan erlari ko'p vodiylarni kesib o'tadi. Yo'lning bu qismi qulay, biroq undan keyin yo'lning eng og'ir qismi — Xami vohasigacha sahrodan o'tish lozim bo'lib, undan Lukchun botig'iga Turfanga borilardi. Bu ikki voha va yana boshqalari birgalikda mustaqil Gaochan bekligini tashkil etardi. Aholisi xitoy askariy ko'chirmalari bo'lib, yangi vatanlariga mustahkam o'rnashib olgan edilar.

Gaochandan boshlab karvon yo'li ikkiga ajralardi. Bir tarmog'i Tyan-SHan janubiy yonbag'ridan Qorashar orqali Kuchu va Oqsuvga, undan Issiqko'l yonidan CHu vohasiga borib, u erdan Talas vodiysi orqali Isfaraga ketardi. Ikkinchi shimoliy tarmog'i ham Gaochandan boshlanib, Janubiy Jung'oriya bo'ylab Urumchi, Manas, Kurkaraus va Iren-SHabirgan tog i orqali Ili daryosi vohasiga kelib, bu erdan O'ta Osiyoga yo'l olishardi. Bundan tashqari Tyan-SHandagi davonidan Qorasharga YUlduz vohasi orqali Ili vodiysiga o'tadigai eng qiyin yo'l

ham bor bo'lib, undan onda-sondagina foydalapshiar edi³⁵

Karvon O'rta Osiyoga etganida dam olardi. Eng yirik dam olish nuqtalaridan biri Toshkent shahri edi. Bu erdan ipak yo'li Xuroson orqali Pay va Xamadonga borar va Vizantiya qal'asi Neseviya (Nizib) orqali Suriya va Konstantinopolga etardi. Vizantiya Xitoy dengizidan Eron chegaralarigacha 150 kunlik yo'l hisoblanardi, bu erdan Vizantiya chegarasi bo'lmish Nizibgacha yana 80 kunlik yo'l edi.³⁶

Savdo juda qizg'in va daromadli edi, biroq bu tijorat og'ir natural xo'jalik sharoitda yashayotgan avom xalqqa emas, balki jamiyatning dabdabali narsalarga ehtiyoj sezadigan yuqori qatlamiga xizmat qilardi. Xitoylar faqat o'z imperator xonimlari uchungina ksltiriladigan nihoyatda qimmat bo'lgan qosh bo'yog'ini olishardi. Bobil gilamlari ham tanqis tovarlardan hisoblanardi. Niqoyat, Xntoyga Suriyadan tabiiy va ishlangan qimmatbaho toshlar, marjonlar, Qizil dengizdan olinadigan injular. Suriya va Misr matolari, Kichik Osiyoningbangivorlari keltirilar edi. Baribir, savdoning eng muhim ashyosi ipak bo'lib, u Evropaga Avgust zamonasidan beri keltirilardi. Vizantiyada ipakka talab juda yuqori bo'lib, u zodagonlarning ehtiyojidan tashqari varvarlar bilan muloqotda, ba'zida askar yollashda pul sifatida ham ishlatilar edi.

YUstinianning jahonga hukmdor bo'lish iddaosi Vizantiya xukumatini anglosakson qirolligini ham qo'shib, barcha Evropa davlatlari bilan diplomatik munosabat o'rnatishga majbur qildi. Sovg'a-salomlar, yollash, kishilarni sotib olish uchun juda ko'p miqdorda ipak kerak bo'lardi. Vizantiya ipak vositasida Ovrupodan va ittifoqchilaridan yollanma askarlarni ham, qullarni ham, umuman istagan narsasini sotib ola bilardi. Aynan tijorag tufayli YUstinian butun O'rta Er dengizi mintaqasini o'ziga tobe qilib, dunyo siyosatini yurgiza olardi. Ipak Vizantiyada oltin va qimmatbaho toshlar bilan bir xil baholanar edi.

Biroq Vizantiyani ana shu qimmatbaho tovar bilan ta'minlaydigan yo'lningbeli SHimoliy Erondan o'tar, sasoniy hukmdorlar esa, karvon savdosini bir lahza ham

³⁵ E. Chavannes, Documents..., S-b. Qirgizistondan Qorashargacha uchinchi yo'l bilan yurgan birinchi pvrupolik V. I. Roborovskiy bo'lib, bu yo'lni 1893 yilda bosib o'tgan (qarang: V. I. Roborovskiy, Puteshestvie v vostochnyy Tyan'-SHan'...)

³⁶ SH. Dil', YUstinian..., 542-6.

nazardan chetda qoldirmas edi. Ipak xom ashyosining katta qismini qayta ishlash uchun o'zlariga olib qoladigan Eron ishbilarmonlari mahsulotlarini G'arbiy mamlakatlarga o'zlari istagan narxda sotar edilar.³⁷

Vizantiya imperiyasini kuchsizlantirish uchun forslar tovar aylanmasini ko'paytirishga emas, ipak narxini oshirish uchun intilardilarki, natijada, Vizantiya imperiyasi pullarini so'rib olish bilan uning siyosiy va harbiy salohiyatini sustlashtirardi. Chunki Vizantiya ipakka qo'yilgan har qanday yuqori narxni Evropa bozorida qoplab, yana foyda ko'ra olar va bu uning harbiy quvvatini oshirib borardi. Shuning uchun forslar yuqori narx qo'yishdan tashqari, g'arbga olib ketiladigan ipak miqdorining ham qat'iy meyorini belgilab qo'yishar va buni nazorat qam qilishar edi.³⁸ Tabiiyki, Vizantiya qam mavjud holat bilan kelisha olmasdi, chunki ipakni katta narxda sotib olish bilan u o'ziga dushman bo'lgan Eronning kuchayishiga hissa qo'shgan bo'lib chiqardi. Urushlar oralig'qza Konstantinopol dorussaltanati davlatning dushmanlari qo'llariga qanchadan-qancha oltinlari ketayotganligini g'amgin kuzatib turishga majbur edi. Iqtisodiy jihatdan mustaqil bo'lish uchun intilishlar naf bermasdi. Taxminan 531 yilda YUstinian Afrika savdogarlari ipakni Hind okeani orqali³⁹ olib kelishni yo'lga qo'yib, savdoni o'z qo'llariga olishi haqida Habashiston bilan kelishib olishga urindi, biroq forslarning hind bandargohparidagi mavqei shu darajada ediki, habashlar ipak sotib olish monopoliyasini ular qo'lidan tortib olishga qurblari etmasdi va 532 yilda tuzilgan tinchlik bitimiga binoan savdoning avvalgi tartibi tiklandi. 540 yilda boshlangan Eron bilan navbatdagi urush YUstinianni muhim bir farmon bilan ipak narxini pasaytirishga majbur qildi, biroqana shu narxda forslarni ipak sotishga majbur qilishning esa hech qanday iloji yo'q edi.

Oqibatda, Suriyadagi ipak yigiruv manufakturasi xomashyo yo'qligidan sindi. Xusrav Anushirvon 570 yilda Yamanni bosib olganidan keyin vizantiyaliklar uchun Qizil dengiz va Hind okeani orqaii SHarqqa chiqishning barcha eshiklari taqa-taq yopildi. Ana shunday bir kezda tarixiy o'yin sahniga turk hoqonligi -

³⁷ A. Christen, L' Han sous les Sassaniades, 1944, 128 - 6.

³⁸ SH. Dil', YUstinian..., 542 - b.

³⁹ N. V. Pigulevskaya, Vizantiyskaya diplomatiya..., 198 - b.

yangi sherik chiqdi. YUqorida zikr etildiki, turkutlar Xitoydan juda kup mikdorda ipakni to'lov sifatida undirar edi. Xonlar o'z chodirlarini ipak matolar bilan o'rganiga qaramay, ular olingan barcha ipakni ishlata olmas edilar.

Eftalitlar mag'lub etilgach, sug'udlar turkut xonining fuqarosiga aylanishdi. Ular azaldan SHarqza ham, G'arbda ham epchil tijoratchi va vositachi sifatida mashhur bo'lishgan. Eftalit xo'jayinlari o'rniga turkutning kelishidan ular faqat yutuqqa ega bo'ldilar: endi ularga Osiyoning markaziy o'lkalari eshiklari lang ochildi, yo'l xavotiri yo'qoldi. Sug'udlar ipak tijoratini kengaytirishdan qanchalik manfaatdor bo'lsalar, o'zlaridagi ortiqcha ipakni sotish imkoniga ega bo'lgan turkutlar ham shunchalar manfaatdor edilar.

SHunday qilib sug'ud tijoratchilari eftalitlarning tor-mor etilishi adolatdan va bu ularning ravnaqi ibtidosi deb bilishdi. Rostdan ham, Xitoyga yo'l ochiq va xatarsiz, turkutlar to'lov sifatida yoki talonchilik bilan olingan ipaklarini qayoqqa qo'yishni bilmas va istagan vositachi har qachongidan ham boyib ketishi mumkin edi. Masala ipakni Vizantiyaga etkazishda qolgan bo'lib, buning uchun forslar shohi bilan kelishib olinsa bo'lgani edi. Istamixon o'z yaqinlari manfaatlari bilan uyg'un tushgan yangi fuqarolarining istagini bajarish yuzasidan hamma narsagatayyor bo'lgani uchun Maniax sug'udni o'z taklifiga binoan Husrav Anushirvon huzuriga ishbilarmon sug'udlar qo'lida yig'ilib qolgan ipaklarni Eron orqali olib o'tishga ruxsat olishga erishmoq topshirig'i bilan muxtor elchi sifatida yuborilishiga rozi bo'ldi. Elchi fors shohiga, hatto o'zi ham savdoda ishtirok etib, ulardan xarid qilib, G'arbda ustama narx qo'yib sotishni taklif etadi. Sug'udlar bu tijorat amaliyotida narxda biroz yutqazsa-da, tovar aylanmasini ko'paytirish hisobiga yutardilar.

O'z-o'zidan fors xukumati bunga ko'nmas edi, chunki u ipakning hammasini Vizantiyaga o'tkazib yuborsa, bir necha yildan keyin Efrat daryosi bo'yi Vizantiyaning yollanma askarlari bilan to'lib-toshib, Eron butun kuchlarini jamlaganda ham uni bartaraf qila olmasdi. Ipakni ichki bozorda qoldirayin desa, Eron aholisining xarid qobiliyati nihoyatda past bo'lib, uni sotib ololmas edi. SHoh ipak sotib olish bilan aynan sharqdagi siyosatini yurgizishda zarur bo'ladigan

oltinini yo'qotardi, bu esa Vizantiya imperatorining garb siyosatida ipakni yo'qotishi bilan bir xil holat edi.

Itgifoqchisi bo'lmish xon tomonidan qiyin bir holatga tushirilgan Xusrav bundan chiqish yo'lini topdi. Katulf eftalitning maslahati bilan olib kelingan ipaklarni sotib oldi va elchi ko'z-o'ngida yoqib yubordi. Bu mavjud vaziyatni o'zgartirishga forslar yo'l qo'ymasligining sug'udlarga bir namoyishi edi.⁴⁰ Sug'udlar shoshilinch tarzda xonga shikoyat qilishdi, xon ziddiyatni bartaraf qilishga qaror qildi. U Eronga turkutlardan iborat yangi bir elchilik jo'natdi. Biroq bu elchilik ham hech narsaga erisha olmadi. Bu bosh og'rig'i muammoning so'ngida turkut elchiligining ko'pchilik a'zolari noma'lum kasallikdan vafot etishdi, uch yoki to'rt nafarigina qaytib keldi, xolos.

Bu voqealar asnosida Maniakh xonni Eron bilan aloqani uzib, Vizantiya bilan ittifoq bo'lishga ko'ndirib ulgurdi. Biroq ipakni Kaspiyni aylanib, Kavkaz orqali olib o'tish qiyin va xatarli edi: turkut nayzalariga orqa o'girib qochgan ugorlar savdo karvonini osongina talon-taroj qila olardilar. Eron orqali o'tatigan yo'l qisqa va engil edi. SHuning uchun Istami xon muammoni qilich bilan echishga qaror qildi. U elchilarim zaharlangan, deb e'lon etdi va qasos olish uchun otlanganini ma'lum qildi.⁴¹ Boshlangan urushning qanchalik jiddiy ekanligini fahmlagan xon ittifoqchilar izlashga shoshildi.

⁴⁰ Karang: I. V. Pigulevskaya, Vizantiyskaya diplomatiya.., 209 - b.

⁴¹ "Vizantiya na putyaxv Indiyu" asarining 202-204-betlarida N. V. Pigrijskiy abuuukkashrii boshqacharoq izohlaydi, menimcha, fikri uncha ishonchli chiqmagan. Uningcha. "hali yarim ko'chmanchilik (? —L.G.) holatidan chiqmagan turklar keng miqyosda savdo-sotiq ishlarini olib borishga moyil emasdimr, ular o'z tobelari bo'lmish sug'udlar bosimi ostida Moniakh boshchiligidagi Eronga elchi yuborishga rozi bo'ldilar". Ammo faqat ko'chmanchi turkutlarga Xitoydan ipak undirib olib, sugudlarni ta'minlar edi. Agar ipakni sotmoqchi bo'lgan tvqdirda him uning narxi shunday bo'lardiki, na sug'udlar va na forslar uni sotib olishga qurbi etardi. Turkutlar ipakni to'lov va o'lja tariqasida qo'lga kiritganlari uchun ham sug'udlarga suv tekinga sotar va natijida tijorat kirimli bo'lardi. Tshelarning o'z xalariga bosom o'tkazish masalasi ham uncha ishonarli emas. Nixoyat, Mashax xonning yaqin kishilaridan bo'lgan, tabiiyki u diplomatik vakolatni aynan xondan olgan. U o'zicha Eronga borib shohonshoh bilan suhbatlashish kabi xatarli ishga qadam tashlagani aniq. Menandrning Istami xon sug'udlarga "o'zlari elchi yuboritariga" ruxsat berishi haqidagi jumlasida esa, sug'udlar muzokara olib borishni o'z bo'yinlariga olgani va diplomatik ishda ular turkut bekalaridan ko'ra usta va tajribali hamligini anglatadi. N. V. Pigulevskaya sug'udlar "butun Eron davlati hududida hech qanday to'siqsiz ipak savdosi yuritish"ni so'raganlar deb hisoblaydi. Biroq Menandr ochiq-oydin, ular ipakni g'arbgacha — Vizantiyaga, Eron xazinasiga to'lov berab bo'lsa ham, o'tkazishga izn so'ragan deb ko'rsatadi. Kuyiroqda N. V. Pigulevskaya, shoh ipakni davlatidan o'tkazishni pad qilishni raqobatdan cho'chish oqibati deb taxmin qiladi. Biroq VI asrda hali ipak savdosi ochiq yo'lga qo'ylmagan edi, demak, hech zanday raqobat ham yo'q edi. Uning: "Eron uchun turklar ular istagan ittifoqchi emas edi" degan xulosasiga ham qo'shilib bo'lmaydi. Mamlakatning bir tomonida shiddatli urush ketayotganda uning ikkinchi tomonida tinchlik bo'lishini istamagan mamlakat bo'lishi mumkin? Birok, hodisalar yakuni baribir, turkutlar va (forslarni urushga chorladi, garchi har ikki tomon buni xohlamagan bo'lsa ham.

Imperator YUstian bilan tijorat shartnomasi va Eronga qarshi harbiy ittifoq tuzish topshirig'i bilan yana o'sha Maniaxni Konstantinopolga yubordi. Maniax Konstantinopolga Kavkaz orqali ketdi. U ayni vaqtda etib keldi. 568 yilda langobardlar Italiyaga bostirib kirishdi va II YUstian YUstinian davrida moliyasini izdan chiqargan g'arbdagi faol siyosatdan voz kechdi. Buning ushigiga Eron bilan urush qaytadan boshlanmasligining iloja yo'q bo'lib, bunday vaziyatda kudratli bir ittifoqchini xudoning o'zi ekazgan edi. Ana shuning uchun ham imperator elchiligini nihoyatda yaxshi qabul qildi va ittifoqdoshlikning tasdig'i sifatida 568 yilning avgustida qaytib ketayotgan Maniaxga sharqiy shaharlarning sarkardasi kilikiyalik Zemapxni qo'shib yubordi. Istamixon ham Vizantiya elchisini iliq kutib oldi va niyatlari xolis ekanligining tasdig'i sifatida Eronga yurish boshlagan lashkari bilan birga ketishni taklif etdi.

Xusrovga urush kerak emas edi. Talas daryosi vodiysida turkut askarlari Eron elchiligi bilan uchrashadi. Biroq xon Zemarxni namoishkorona tarzda Eron elchisidan ko'ra to'rga o'tqazdi va uning ko'z o'ngida fors elchisiga dashnom berdi. Fors elchilari Eronga urush haqidagi xabar bilan qaytdilar. SHundan so'ng xon Zemarxga izn beradi va u Konstenopolga Moniaxning o'g'li hamda muxtor elchi Tag'ma-Tarxon nomli turkut bilan birga qaytib keldi. Bu paytlarda Moniax olamdan o'tgan, biroq u asos solgan Vizantiya-Xoqonlik ittifoqi davom etib, meros sifatida Xazar xoqonligiga o'tdi. Xuddi shunday Eron bilan dushmanlik ham meros bo'lib, hatto fors podsholarining o'rnini arab xalafaligi egallaganda ham xazar xonlari bu ana'naga sodiq qoldi.

Eftalit merosi taqsimoti. Boshlangan urushning rasmiy bahonasi Istamixonning "forslar eftalitlarga to'lagan tulovini endi menga bersin" degan talabi edi. Talab rad etilishi suzsiz edi. SHuning uchun xon tavakkal qildi. Turkut suvoriylari Amudaryodan tezda o'tib avval forslarga tegishli bo'lgan Jurjondagi "Sirlarning SHaxarlari va bandargohlarini" bosib oldi. Ammo forslar eftalitlarga qarshi V yuzyilliqda qurgan istehkomlari tizmasidan o'tishga turkutlarning kurbi etmadi. Hujum to'xtatildi va 569 yildayoq turkutlar Sirdaryoga qaytdilar. Ana shuning bilan harbiy harakatlar to'xtab qoldi, binobarin, Istamixon shohanshohning yaxshi o'rgatilgan muntazam qo'shini bilan duch kelishni

istamadi. Vizantiya Mesopotamiyada urushni bugun-erta boshlamoqchi bo'lib turganligini bilgan xon eftalit merosini bo'lishish haqida kelishib olishga intildi. 571 yilgi shartnomaga ko'ra Husrav Anushirvonga Sind, Bo'st, ar-Roxaj (Araxoziya), Zabuliston, Toxariston, Dardiston va Kobuliston tegdi. Bundan tashqari, forslarga eftalit begi Fag'onishning merosiy ulushi — CHag'oniyon o'tdi. Turkutlarga esa So'g'diyona berildi.

Tinchlik bitimi tuzilishi Xusrav Anushirvon uchun katga bir omad edi. Birinchidan, u o'z podsholigi chegarasini sharqqa qarab shu darajada kengaytirdiki, undan avval hech bir Eron shohi bunga erishmagan edi, ikkinchidan, u o'z lashkarini g'arbda urush qilish uchun bo'shatib oldi, bu erlarda armanlar qo'zg'olon ko'targan, gruzinlar Vizantiyaga sotilgan, Arabistonda habashlar ko'tarilgan bo'lib, nihoyat, 572 yilda Vizantiya qo'shini hujumga o'tib Nizibni qamal qilgan edi. Ta'lim ko'rgan qo'shinni g'arbga tashlash bilan Xusrav askariy qarakatlarda tezda keskin burilish yasab, 573 yildayoq Daruni qo'lga kiritdi. Aslida Xusravning bu zafarlari sababchisi turkut xonining Eron yo'llaridagi majburiy harakatsizligi edi. Turkutlarning ashaddiy dushmani avarlar Savadan to Dongacha bo'lgan cho'l mintaqalarini bosib olganidan so'ng, Istamixon hujumni janubdan olib, g'arbga yo'naltirishdan boshqa chorasi yo'q edi. 567-571 yillar oralig'ida turkutlar SHimoliy Kavkazni to'liq egallab⁴², Bosporyonida Vizantiya imperiyasining chegaralariga kelib taqaldi.

Ehtimol turkutlar mana shu yo'llar orqali o'z do'stlari va maslahatchilari bo'lmish sug'udlar uchun yangi karvon yo'li ochmoqchi bo'lishgandir.

Forslar bilan avarlar orasida siquvda qolgan Vizantiya xon bilan ittifoq bo'lishga zo'r berib intilardi. Bir necha yil ichida turkutlarga Evtixliy, Irodion, Pavel Kilikiyli va Anangastlar boshchilik qilgan elchilar jo'natildi. SHarq bilan G'arb o'rtasida ko'prik qurilib, ittifoq mustahkamlanganday tuyulsada, biroq voqealar oqimi boshqa o'zanga oqa boshladi.

Vizantiya bilan urush. 553 yilda Vizantiyaning o'zida ipak ishlab chiqarish

⁴² Turkutlar belenier (bulvurlar) va xazarlarni bo'vsundirib. Darbandga etdilar va qan'ani ko'rib chiqib dashtga qaytdilar (Tabariv I.2. 895-896: Ibn al Asir. 9- YU fiem.mp, bu uzindilar M. I. Artamanovning "Istoriya xazar" asarining 137- 138 betlaridan olingan).

yo'lga qo'yildi. Ipak qurtlarini Prokopiyy Kesariyligiga ko'ra ikki nasoro rohibi, Feofan Vizantiyaligiga ko'ra esa, bir fors ichi kovakhassada olib kelgan ekan. N. V. Pigulevskaya fikriga ko'ra, ipak qurtlari sug'ud kengliklaridan olib kelingan. M. E. Masson Feofanning rivoyatlariga tayanib, Jurjondan olib kelingan, deb hisoblaydi. Ipakchilik Konstantinopolda, Bayrutda, Tirda va Antioxiyada rivoj topdi. VI yuzyillik oxirlariga kelib, Vizantiyada chetdan ipak olib kelish ehtiyoji avvalgi qadrini yo'qotgan bo'lib, turkutlarning ham ipak monopoliyasi haqidagi orzulari chippakka chiqdi. Raqobat vujudga kelgach, ular ipak narxini pasaytirishga majbur bo'lishdi va tijoratdan keladigan kirim miqdori ancha kamaydi.

Ipak savdosidan tashqari, Vizantiya va turkutlar munosabatining sovushida avarlar masalasi ham kam ahamiyat kasb etmadi.

568 yil shartnomasiga ko'ra Vizantiya avarlar bilan tinchlik va ittifoqchilik bitimi tuzmaslik majburiyatini olgan, shuning uchun ham avar elchiligi Yustin huzuriga kelib, Pannoniyani egallashga ruxsat va tinchlik bitimi tuzish haqida qilgan iltimosi rad etildi. SHunga qaramay, avarlar Pannoniyaga o'rnashib oldilar va vizantiyaliklarni mag'lub etib, ularni 570 yilda tinchlik bitimi tuzishga majbur qilishdi.

Mana shu ikki holatning o'ziyoq siyosiy qayta guruhlanish uchun etarli bo'ldi. Turkutlar Volga tevaragida endigina bo'ysundirilgan qabilalar qurshovida edi. Ular tinchlikni bo'yniga olishlarining asosiy sababi shu paytgacha turkut suvorilariga teng kelishning imkoni yo'kligi edi. Avarlarning birdaniga kuchayib ketishi turkutlarning barcha dushmanlari uchun bir markazga tortish kuchini hosil qildi, bundaylarning birinchisi kuturgurlar bo'ldi, bular endi turkutlarning o'zi uchun xatar tug'dira boshladi. Lekin avarlar hali ham gepidlar va yunonlar bilan urush olib borayotgan va urush natijasi hali noma'lum bir kezda, turkutlar ancha kuchsiz dushmanlaridan xavfsiramasa ham bo'lardi. Avarlar qudratli davlat bunyod etib, Vizantiya bilan tinchlik bitimi tuzib, o'z xavfsizligini ta'minlab olgach, turkutlar bu xatarni payqamasliklari mumkin emasdi. Rostdan ham ular 576 yilda Valentin yuborgan elchilikni oldingilaridan ko'ra boshqacharoq kutib oldilar.

Elchilarni Turksanf — sakkiz urug'dan birining begi (turkut saltanati buyuk

xonga bo'yinsunadigan sakkiz ulusdan iborat edi) kutib oldi. U Valentinning salomiga "Sizlar o'n xil til va bir yolg'on ishlatadigan o'sha rumliklar emasmisizlar?" deb alik oladi. Bu so'zlarni aytib bo'lgandan keyin, u o'z og'ziga o'n barmog'ini tiqib davom etadi: "Mana, mening og'zimda o'nta barmog'im turishi kabi siz rumliklarning og'zingizda tilingiz juda ko'p. Biri bilan meni aldasangiz, boshqasi bilan mening qullarim varxanitlarni aldaysiz... Sizning podshohingiz men bilan do'stona so'zlasha turib, o'z xo'jayinlaridan qochib yurgan qullarim varxonitlar (avarlar nazarda tutilayapti — N. G.) bilan bitim tuzganligi uchun vaqtida jazosini oladi. Biroq varxonitlar turklarning (turkutlarning II. G.) tobelaridir va ular men istagan paytda oldimga keladi... Siz rumliklar Vizantiyaga yuborilgan elchilarimni Kavkaz orqali olib borasizlar va boshqa yo'l yo'qligiga meni ishontirmoqchi bo'lasizlar? Siz buni yo'llar og'ir va qiyin, deb o'ylab meni Rum viloyatlariga hujum qilishdan tiyilishim uchun har balo qilishga tayyorsiz. Bilib qo'yingki, Danapr daryosi qaerdaligini, Istr qaerlardan oqib o'tishi, qullarim avarlar Rumba qaysi yo'llardan borganligining barchasini men miridan sirigacha bilaman. Men hatto sizlarning kuch-quvvatingizdan ham xabardorman. Quyosh nurlari dastlab tushadigan joylardan boshlab to g'arbgacha bo'lgan barcha erlar menga bo'yinsunadi. Ey baxti qarolar, alanlarga, yana uturgurlarga qaranglar, ular o'zlarining cheksiz hushyorligi va tetikligi bilan mamnun bo'lib, kuchiga ishonib, engilmas turkutlarga qarshi tig' ko'tardi, biroq ularning umidlari chippakka chikdi. Endi ular bizning qo'l ostimizda, qullarimizga aylandi" Bu matn bizga turkut tashqi siyosatida burilish bo'lganligini anglatadi, ayni chog'da, bu erda Menandr Turksanf o'z fikrini asoslashini batafsil bermagani aniq. SHuncha narsani bilgan Turksanf, Vizantiya bilan avarlar orasidagi bitim Dunay bo'yidagi shafqatsiz jangda yunonlarning qattiq maglubiyati natijasida majbur bo'lib tuzilgan bitim ekanligini bilmasligi mumkin emasdi. Valentin o'zini oqlash uchun bahona topishi qiyin emasdi, ammo u buning o'rniga o'zining elchilik maqomi va Turksanfning otasi bilan eski do'st bo'lganligini eslatib o'tadi. Qisqasi, u o'zini aybdorday tutadi. Buning sababini arab tarixchilari Tabariy va Saalabiylardan topamiz. Xusrav Anushirvon janglarini tasvirlash asnosida ular xabar beradilarki,

Vizantiyaga qilgan yurishidan qaytishda Xusrav xazarlarga (ya'ni g'arbiy turkutlarga — L.G.) hujum uyushtirib, ular bilan hisob-kitob qiladi. Saalabiyda bu berilgan darakning sanasi ko'rsatilmaganu, biroq Antioxiyani olish voqeasidan keyin keltiriladi; Tabariy bo'lsa, voqealarni umuman sanalar ketma- ketligisiz bayon qiladi. Aslida, to 575 yilgacha Vizantiya elchilari turkutlar tomonidan iliq kutib olingan 575 yilda esa Eron va Vizantiya orasida yarashuv bitimi tuzilib, Xusrav qo'li bo'shagan qo'shinini dushmanining itgifoqchilari ustiga tashlab, hisoblashish imkoniga ega bo'ladi. Turkutlar 570 dan 576 yilgacha SHimoliy Kavkazni bo'ysundirish bilan mashg'ul bo'lishgan. Aynan turkutlar yordamida Vizantiya gumashtasi bo'lgan Guaram Bagradit Kartli taxtini egallashga muvaffaq bo'ladi (575).⁴³ Vizantiyaga inonganligi uchun ular orqadan zarbani kutmagan edilar.

Ana shunday bir vaziyatda Turksanfnng g'azabini tushunish mumkin. Aloqa buzilishi oqibatlari ko'p kuttirmadi. 576-yilda uturgurlar qo'llab turgan turkutlar Bosporni egallashdi, bu turklar (turkutlar) rumliklarga qarshi urush boshlaganligining ifodasi edi.⁴⁴ Turkutlar bosqini bu bilan tugamadi. Ular Qirimga ham kirib bordilar, lekin u erdan uloqtirib tashlangan ko'rinadi. So'ng turkutlar Vizantiyaga G'arbiy Kavkaz⁴⁵ orqali kirishga urinib ko'radilar, biroq shimoliy chegaralari Kavkaz tizmasi orqali o'tadigan Egrisi podshohligi qarshiligiga duch kelishadi. Kavkazortiga kirishning iloji topilmagach, 80-yillar boshlarida, turkutlar ko'pgina asirlarni o'ldirib, chekinishga majbur bo'ladilar. Ular faqat SHimoliy Kavkaz tekisliklari, Darbandgacha bo'lgan Dog'iston tog'oldi mintaqalarida mustaqkam o'rnashib olishga muvaffaq bo'ladilar. Vizantiya uchun turk xavfi bartaraf bo'ldi.

Xitoy va ipak yo'li. Endi ipakning koni bo'lgan Xitoy turkut, sug'ud, fors va yunonlar uchun juda foydali bo'lgan ipak tijoratidan nima naf ko'rishini kuzataylik. Mehnatkash xitoylik dehqon bu qimmatbaho tovarning ishlab

" M. Brosset. Histoire de la Georgie... I. 216 b. Brosse bu sanaga shubha bildiradi chunki vazivat havoni 589 vil vazivatiga iuda o'xshashdir. Menimcha, bu erda xato sanada emae halki vazivatni izohlashdadir. Yirik va kevinai hodisa. avvangi kichikroq hodisani bosib ketgan. Xullas, men yilnomachining Guaram 575 yilda podshoh bo'ldi, degan xatiga ishonaman.

⁴⁴ Menandr 423-6.

¹ Feofilakt Simokatta, Istoriya, str. 160-161 L. N. Gumilev, Biografiya tyurkskogo xana... 72-6.

chiqaruvchisi bo'lsa ham, o'zlari undan deyarli foydalanmas edi, chunki soliqlar juda katta bo'lib, muntazam ravishda yig'ib olinardi.

Ipak evaziga olinadigan dabdaba ash'yolari asosan, saroy ehtiyojiga sarflanib, ichki bozorda uncha ahamiyati yo'q edi. Buning ustiga olib kelingan ash'yolar chiqarilgan ipakka nisbatan ancha kam bo'lib, umuman ipak savdosi Xitoy uchun chiqim edi. SHunga qaramay, Bey-CHjou hukumati vaziyatni o'zgartira olmas, aniqrog'i, o'zgartirishga haddi sig'mas edi, chunki bu hukumatning siyosiy yutuqlari to'laligicha turkut xonlari kayfiyatiga bog'liq edi: Bey Zi va Togon asosan turkutlar yordamida tor-mor keltirilgan bo'lib, Janubiy Xitoyni bo'ysundirish ham ort tomon xavfsizligini ta'minlamasdan turib bajarib bo'lmaydigan reja edi. Bundan tashqari shuni ham nazarda tutmoq kerakki, Bey-CHjou sulolasi xitoyliklarning emas, balki sanbiylarniki bo'lib, SHimoliy Xitoyning yirik er egalariga aylangan xitoylashgan sanbiy aslzodalariga suyanar edi. Tobalik "sochi o'rilganlar" o'ztili va odatlarini unutishlari muhim emasdi, tub xitoyliklar ularni hanuz yomon ko'rar, varvar va bosqinchilar nasli, deb bilishardi. Xitoyliklarga Bey-CHjou hukumatining tashqi siyosati ham yoqmas edi. Katta miqdordagi to'lov hisobiga amalda joriy bo'lgan turkutlar bilan ittifoq ham sulola qali dasht an'alaridan aloqani uzaolmaganini ko'rsatardi. Bularning ustiga daosizm va buddizmni tazyiq qilinishi, xalq orasida katta e'tiborga ega bo'lgan bu tashkilotlarni muxolifotlar safiga itarar edi. Nihoyat, aholisi ko'p Bey Zi podsholigining qo'shib olinishi imperiyada xitoy unsurining ko'payishiga olib keldi. Ushbu pishib etilib kelayotgan voqealarda, baribir, hal qiluvchi rolni "Guanlum" deb ataladigan guruh o'ynadi.

Og'ir bir zamonda, Vey xonadonining yiqilishi bilan SHandundan ko'plab boy xitoy oilalari YUyvin Tay va SHensiga kelib Guanchjun va Lunsi viloyatlarida o'rnashib qoldilar. Bu erda ular mahalliy xitoy amaldorlari va er egalari bilan birlashdilar hamda qo'shnihilik, etnik birlik va qarindoshlik rishtalari asosida guruh tashkil etdilar. YAshash joylari nomlari Guan (chjun) va Lun (si)dan kelib chiqib bu guruhlarini "Guanlun" deb atay boshladilar. So'nggi Bey-CHjou imperatorlari davrida guanlunlar boshlig'i sarkardaYAn Zzyan edi, bu shaxe

balog'atga etmagan imperatorning tog'asi ham edi.

YAn Zzyan "jahldor, ishoncheiz kishi bo'lib, kitobni xushlamas, ayyorlik bilan ish tutardi; boshqalarni qo'rqitib ushlash sirini bilar, shuning uchun uning buyruqlari tez va aniq qilib bajarilardi. Davlat ishlari bilan erta tongdan tungacha shug'ullansada, charchoq alomati sezilmasdi. Uning siyosiy xushlovlari va xushlamaslarini u suyangan muhit belgilardi. Mamlakat ichida ijtimoiy ziddiyatlarni yumshatadigan tadbirlar o'tkazsa, qo'shnilariga nisbatan munosabatlarni keskinlashtirish yo'lini tutardi.

563 yilda YAn Zzyan turkutlar bilan ziddiyat chiqarib, siyosiy yo'nalishini o'zgartirmoqchi bo'ldi. U buni quyidagicha asoslaydi: "Turkut jangchilari mukofotga ham, jazoga ham parvo qilmaydi, boshlikutrining hurmatini ham doim o'rniga qo'ymaydi, ko'pincha tartibga ham itoat qilmaydi. Ularni yo'lga solish unchalik qiyin emas. Bundan ko'rinadiki, ularning qudrati haqidagi shov-shuvlar unchalar ham asosli emas. Bu bilan ular yuborgan vakillariga hukumat ko'pdan-ko'p tortiqlar berishiga erishib, o'zlari u erga qaytishganida ulush olishni umid qiladilar. Saroyga uydirma ma'lumotlar etkaziladi, askariy boshliqlarni ular to'g'risida istagan mish-mish qaltiratib qo'yadi. Raqiblarimiz faqat tashqi ko'rinishidan mardonadir, aslida ularni biryoqlik qilish qiyin emas. Endi, menimcha avvalgi va keyingi vakillarining kallasini oladigan vaqq keldi."

Ammo bu gaplar asl haqiqatni emas, balki "guanlun guruhi"ning dasturini ifoda etar edi. Turkut suvori askarlari xitoy piyodalaridan ancha epchil va chaqqongina bo'lib qolmasdan, avvalgi ko'chmanchilardan farq qilib, manglayga zarba berish malakasini ham yaxshi egallab olgandilar. 578-579 yillardagi to'qnashuvlar turkutlarning askariy ustunliklarining yaqqol dalili bo'ldi. Dashtga yaqin bo'lishga moyillar bilan munozaraga kirishgan YAn Zzyan ularni sotqin, poraxo'rlar qilib ko'rsatishga urinadi. Uning eng muhim fikri bu turkutlarga tortiqlar, ya'ni ipak matolar berishni to'xtatish haqidagi talabidir. Bu tadbir rostdan ham turkut xonlarining iqtisodiy salohiyatiga putur etkazar va ayni chog'da Xitoyning o'zida soliqlarni kamaytirishga imkon berar edi.

SHunday qilib "Guanlun guruhi" mamlakatini iqtisodiy va siyosiy jihatdan

yakkalanib qolishini taklif qildi. Bu dasturni imperator rad etdi. Biroq YAn Zzyan sabrli bo'ldi, vaqt uning foydasiga kechardi. Turkutlar talabi va xitoyliklar qudrati o'sib borishiga mutanosib tarzda Bey-CHjou sulolasida sanbiy unsurlari zaiflashib bordi. 581 yilning ko'klamida xitoy a'yonlarining hukumatga qarshi ko'targan isyoniga xalq ommasi qo'shildi.

Bu vaziyatdan YAn Zzyan unumli foydalanib, to'qqiz yashar so'nggi imperatorni taxtidan o'zining foydasiga voz kechtirishga erishdi. Baxti qaro bola tez orada qatl etildi, Yuyvin xonadonining barcha a'zolari dorga osildi, shundan so'ng isyon ham to'xtadi. YAngi sulola Suy deb atala boshlandi.

“Xitoy” partiyasi to'liq g'alabani oson qo'lga kiritganiga qadamay, YAn Zzyan ko'psonli sanbiy zodagonlarini jig'iga tegishga botina olmadi. Maxsus farmon chiqarib, “avvalgi sulola davridagi barcha rutba va unvonlar o'z kuchida qolishini” bildirdi.

Xitoylashgan sanbiy aslzodalari saqlanib qoldi va bu faqat Xitoyning bundan keyingi tarixini emas, balki butun Markaziy Osiyoning kelajagini belgilab berdi. Agar ushbu farmon bo'lmaganida, bu erda fuqarolar urushi kelib chiqishi tayin edi. Biroq oldida ikki muhim siyosiy vazifa: Janubiy Xitoyni bosib olish (bu vazifa 589 yilda osongina amalga oshirildi) va turkutlarni tor-mor etish vazifalari turgan YAn Zzyan fuqarolik urushi kelib chiqishiga mutlaqo yo'l qo'ya olmas edi. Turkutlarni tor-mor etish muammosi esa, “Guanlun guruhi” dohiylari o'ylaganicha uncha oson ish emasligi keyin ma'lum bo'ldi.

II.2. Qadimgi turk elining ijtimoiy munosabatlar tahlili.

Hukumat va xalq. Xitoy manbalarida bildirilishicha, xon e'lon qilish ancha murakkab marosim bo'lgan. A'yonlar uni namatga o'tqazib, oftobli erda to'qqiz marta aylanganlar, bu asnoda qatnashchilar baland ovoz bilan uni tabriklab chaqiriq qilganlar. So'ngra uni otga mindirishgan, bo'ynini ipak mato bilan qisib bog'lab, shu zahoti bog'ichni bo'shatgan va necha yil xon bo'lish istagi borligini so'rashgan. Turkutlar tarixiga nazar tashlab, ushbu savolga berilgan javob xonning hukmdorlik muddatiga ta'sir etganligini payqash qiyin. SHuning uchun bu udum xon qabilaning etakchisi sifatida saylab quyiladigan zamonlardan qolgan bir qoldiq

deb qaralsa to'g'ri bo'ladi. Taxtni meros olish tizimi ham ancha murakkab bo'lgan.

Mamdakatda xondan keyin birinchi shaxs **yabg'u** hisoblanardi. Boshqacharoq aytilsa, yabg'u qirol moviniday bir mansab bo'lib, unga podsholik qilayoggan urug'ning vakili tayinlanar edi. Masalan, elxon Bumin zamonasida yabg'u uning tug'ishgan ukasi Istami bo'lgan. Ayni paytda yabg'u taxtga voris bo'la olmasdi, voris "tegin" maqomida bo'lib, qanday lavozim egallashi ahamiyatsiz edi. "SHod" unvoni bilan naslan shahzoda bo'lib, o'zi mustaqil idora etiladigan ulush eriga egalik qiladiganlar atalardi. Jumladan, keyinroq hatto xon bo'lgan Simo, nikohsiz tug'ilganlikda ayblanib "shod" bo'lishiga yo'l berilmagan.

Mayda amallarga Ashina urug'iga mansub bo'lmagan kishilar tayinlanardi. Biroq barcha lavozimlar nasliy bo'lgan. Mana shu asosda turkut jamiyati zodagonlar jamiyati bo'lgan deyish mumkin. Keling, xulosa chiqarishga hozircha shoshilmaylik.

Turkut jamiyatida erkin kishilar va yuqori tabaqadan tashqari asir olinganlardan paydo bo'lgan qullar ham bor edi. Ularning asosiy qismini ayollar tashkil etardi. Istamixon Zemarxga 569 yilda qirg'iz kavmidan bo'lgan tutqun qizni tortiq qiladi; omadli yurishlar samarasi sifatida Xitoydan minglab ayollar tutib kelinardi; 619 yilda CHuloxon Bin-CHjouni bosib olib "shahardagi barcha xotinlar va qizlarni olib ketadi". Atrpatakanda 628 yilgi kishilarni ovlash manzarasi YAqin SHarqda uzoq zamonlargacha eslanib yurildi. Nihoyat, Yuygushad aynan asirlarni taqsimlash mojarosi oqibatida taxtdan mahrum bo'lgan. SHu tariqa turkutlarga qullar va quldorchilik ma'lum bo'lgan, deb tan olishga to'g'ri keladi. Ammo bu o'rinda bir savol tug'iladi: ko'chmanchi xo'jaliklarda qullardan qanday qilib foydalanish mumkin? Qul bu sharoitda, agar u majruh bo'lmasa, istagan paytida xo'jayinining otida qochib ketishi mumkin va unga sarflangan kuch-quvvat, pul o'zini oqlamaydi. Qulning ahvoli biz o'ylaganchalik og'ir bo'lmaganga o'xshaydi, buni tasdiqlovchi yodgorlik matni ham bor. 486 yilda SHabolioxonga o'zini Suy xonadonining vassali deb tan olish taklif etiladi. SHabolio "vassal" so'zi nimani ifoda etadi deb so'raydi. Unga: Suy podshoxligida "vassal" so'zi bizda "qul" so'zi anglatgan ma'noni bildiradi" deb javob beradilar. Xon esa "Ko'k farzandining quli

bo'lishdek baxtga muyassar bo'lish"dan mamnunligini elchiga sovg'alar takdim etish bilan izhor qiladi. Mazkur iqtibos kimnidir quli bo'lishning qanday xursandchilik tomoni bor ekan, degan savol tug'diradi. Bugundan boshlab o'zini Xitoy imperatorining quli deb o'ylaganida SHabolioxon boshqa bir narsani tushungan, shekilli. Aslida ham, kimgadir bog'liqlikni ifoda etuvchi "qul" so'zining ma'nosini biz to'g'ri anglamadikmi? Xitoylar "qul" so'zini muqobili deb "nu" so'zini emas, "tchin" so'zini olganlar. Buni N. YA. Bichurin "vassal" deb, Jyul'en esa "sujet"⁴⁶ "fuqaro" deb izohlaganlar. Baxtimizga O'rxo'n toshbitiklaridagi ayrim matnlar "qul" so'zining ma'nosini aniqlab, muammoni hal etishga imkon beradi. Kultegin katta matnida "tabg'ach budung'a baglik uri o'g'lin" qul bo'lti, silik qiz o'g'ling' kung bo'lti"⁴⁷ deb yozilgan, ya'ni "tabg'ach qavmiga mart o'g'lonlaring qul"⁴⁸ bo'ldi, suluv qizlaring kung (cho'ri) bo'ldi". Ammo bu chog'da turklar Tan imperiyasining xitoylik aholisiga nisbatan ko'p imtiyozlarga ega bo'lgani holda, o'z holicha Gobining janubidagi dashtda yashar edilar. Ular yurishlarda qatnashib, xizmat yuzasidan mansab pog'onalariga ko'tarilar va o'govlariga xurjunlarini to'ldirib o'ljalar olib qaytar edilar. Faqat hech qanday ijtimoiy zulmsiz o'zga bir qavm podshohiga itoat etish haqiqati bor edi.

Boshqa bir matnni olaylik:

"[Elterish qog'on]... o'z elini, o'z qog'onini yo'qotgan, qul va cho'rilarga aylangan, turkcha tuzuklarni boy bergan xalqini tartibga keltirdi, xalqini o'qitdi, ota-bobolar o'rnatgan tartibni tikladi".⁴⁹ Bu o'rinda yana begonalariga bo'ysunish ta'kidlanmokda, shaxsiy erkinlikni yo'qotilgani haqida hech qanday gap yo'q.

Uchinchi bir matnda — Barsbekning halokati tasvirlanib, "uning xalqi qul va cho'rilarga aylangani"⁵⁰ ta'kidlanadi. Bu odatdagi bosib olish bo'lib, asirlarni qul bozorida sotish haqida lom-lim deyilmaydi."

SHunday qilib, "qul"ning asosiy ma'nosi begonaga bo'ysunishdir. Ushbu ma'no to XIX yuzyillikkacha saqlanib kelgan. Keyingi turklar musulmon

⁴⁶ S. Julien, Documents..., vol. 3, 497-6.

⁴⁷ S. E. Maloe Pamyatniki..., 1951, 29-6.

⁴⁸ S. E. Maloe "rab" i "rabynya" deb beradi (Pamyatniki..., 1951, 37-6.)

⁴⁹ S. E. Maloe "rab" i "rabynya" deb beradi (Pamyatniki..., 1951, 37-38-6.)

⁵⁰ O'sha asar, 39-6

madaniyati bilan qovushgach, islomga xos qul savdosi doirasiga kimgach, “qul” atamasi ilgari anglanmagan yangi ma’no nozikligini— sotiladigan qullarni ham ifodalay boshlagan. VI-VIII asrlarda qullardan foydalanish ham mutlaqo boshqacha bo’lgan: turkutlar ularni o’z erlariga olib kelib, muayyan bir erga joylashtirganlar va ulardan soliq undirishgan. Bundan tashqari, ayollardan uy xizmatkori va nikohsiz xotin sifatida foydalanishgan.⁵¹ Qullar ko’p jihatdan Rimdagi “kolon”larga o’xshardilar, biroq hech qanaqasiga bizning tushunchamizdagi “qul”ga mos bo’lmagan. S. P. Tolstov aholisi yoppasiga turkutlarga dehqonchilik va hunarmandchilik mahsulotlari bilan soliq to’lab turadigan kentlar bo’lganligi haqida yozadi. Aslida bular yangi fuqarolar — hiroj to’lovchi bo’lib, turkutlar hiroj to’lovchilarni idora qilishni yaxshi bilganlar. “Suysu”da hiroj olish yaxshi aks ettirilgan: “Olinadigan kishilar, otlar, soliqlar va qora mollar miqdorini yog’ochlarni kertib hisoblashgan”.⁵² Ayniqsa, Moisey Kagankatvazi turk xoqonligida fuqarolardan soliq undirish tizimini atroflicha bayon qiladi: “SHimol begi butun er yuziga qo’rquv va dahshat soldi. Oltin yuvishni biladigan, kumush tayyorlaydigan, temir qazib olishni va mis ishlab chiqaradigan barcha turdagi xunarmandlarga kuzatuvchilar yubordi. U tovarlardan Kura va Arake kabi buyuk daryolarda baliq tutuvchi baliqchilardan boj olish bilan birga, forslar podshohdigining odatiy ro’yxati bo’yicha didraxma ham talab etardi”.

Ushbu xabardan ma’lum bo’ladiki, turkut xonlari Eron shohlaridan ko’ra ko’proq soliq undirar ekan, demak, turkut xonlari va a’yonlarining boyliklari har bir bosqindan keyin oshgandan oshib boravergan. Bunday talonga Xalxa va Jung’oriya telelari, Janubiy Manchjuriyadagi kidanlar va xilar, Sugdiyonaning shahar-davlatlari, Toxariston bekliklari, Osiyo ombori — Turfon, Uraloldi ugorlari, Kuban uturgurlari va Sayoyan-Oltoy Janubiy yonbag’ridagi o’rmon qabilalari muntazam ravishda duchor qilinib turilgan. Buning ustiga Xitoy ham yillik hirojini to’lab turishi kerak edi, to’lamasa yakson qiluvchi bosqinga muhtalo

⁵¹ Bu holat yuqoridagi fikriga zid ravishda bo’lsa ham S. P. Tolstov tomonidan ta’ysidlangan (Tiraniya Abruya, 46-47-6).

⁵² N. YA. Bichurin Sobranie svedeniy..., 229-6.

bo'lardi. Eron va Vizantiya esa tinchlik evaziga yoki ittifoqchilik uchun tortiqlar berib turardi. Albatta, bu boyliklarning bir qismi bo'ysundirilgan xalqlarni shafqatsiz ezib, molini olishda sodiklik va sabot ko'rsatgan oddiy jangchilarga ham tegardi, lekin daromadlarning eng katga qismi, xususan xonlar va uning atrofidagi xoslari hamyoniga tushardn.

Bu yo'l bilan to'plangan boylik miqdori ko'p bo'lgan bo'lishi kerak. Turkut xonining Vizantiya elchilarini dabdabali kutib olish manzarasini Menandr yaxshi ko'rsatgan. "...Ular tushlik qildilar, kunning qolgan qismini o'sha chodirda bazm qilish bilan o'tkazishdi. SHarob ichishdi, bu bizdagi uzumdan siqib olinadigan sharobga o'xshamasdi. Ular ichadigan ichkilik yovvoyilarcha bir suyuqlikdir.⁵³ Keyingi kuni ular (rumliklar) ipak to'qimalarga liq to'la va ipak bilan o'ralgan boshqa bir o'govga o'tkazildi. Bu erda turli xil butlar ham bor edi. Dizavul (Istamixon) to'laligicha oltindan yasalgan taxtda o'tirardi. Ushbu chodirning o'rtasida oltindan ishlangan idishlar bilan birga oltin sandiq va qutilar bor edi. YAna bazm davom ettirildi, ichkilik ichish orasida tanovul qilib, zarur gaplarni gaplashib olishdi, shu zaylda tarqalishdi. Navbagdagi kuni boshqa bir xonaga kirishdi, buda ustunlar oltin bilan qoplangan, taxtga oltin suvi yuritilgan bo'lib, uni to'rt oltin to'vus ko'tarib turardi. Xona oldida uzundan-uzoq yonma-yon joylashgirilgan aravalar kumush idish va savatlar bilan to'la. To'rtoyoqli jonivorlarning kumushdan yasalgan tasvirlari bizda yasaladiganlardan hech ham kam joyi yo'q. Turkut xonining hashamati ana shunday edi."⁵⁴

Bular so'zsiz tortib olingan boyliklar edi, biroq turkutlarning zafarlari va dunyoning yarmiga egalik qilishi tasodifiy hodisa emas edi.

Ular ko'chmanchilik saviyasidan ancha yuqori bo'lgan shunday bir qo'shin va idora tizimini yaratdilar, shunga munosib ravishda g'alabalarga ham erishdi, deb ishonch bilan aytish mumkin.

Pog'onali ulush tizimi.⁵⁵ Buyuk turkut saltanatining tashqarisida bo'lgani kabi

⁵³ Guruchdan tayyorlangan xitoycha araq haqida gap bormoqda (qiyoslang: G. E. Grum- Grijimaylo, Zapadnaya Mongoliya..., 216 - b

⁵⁴ Menandr. 378-379 - b

⁵⁵ Iestovka (novunaning rus tilidagi muqobili) - ko'ndan olingan tasbeh turi: uni taxtga vorislik qilishning o'ziya xos turiga o'xshatish Nikonov vilnomasida uchraydi (tasbehda bir dona ketidan ikkinchisi o'girilgani kabi, ulush beklari navbat bilan xonlik taxtini egallaydilar).

uning ichkarisida ham chuqur, asosli o'zgarishlar ro'y bermokda edi. Bu narsa birinchi navbatda taxgga vorisliqda namoyon bo'ldi. YUqorida Elxon Buminning vorisi Qora Issiqxon otasidan keyin atigi yarim yil yashab, 553 yilda qazo topgani aytilgan edi. Issiqxonning o'g'li SHetu taxtdan chetlashtiriladi va hokimiyat Buminning ikkinchi o'g'li Mug'onxon laqabini olgan Kushu qo'liga o'tadi.⁵⁶ Uning hukmronligi chog'ida xoqonlikning faqat tashqi siyosat salohiyati oshibgina qolmay, pog'onali ulush tizimi ham yo'lga qo'yildi va natijada turkut saltanati Osiyoda yuz yildan ko'proq buyuk davlatlar bilan raqobat qilib, o'sha VI-VII yuzyilliklarda butun qit'ada hukmronlik mavqeini qo'ldan bermadi.

Bu tizimning mohiyati quyidagichadir. Turkut saltanati-uzun nayza va o'tkir qilich bilan yaratilgani aniq. O'n yilgina (550- 560) vaqt ichida Sariq dengizdan Volga daryosi oralig'idagi barcha ko'chmanchi qabilalarni bo'ysundirdi va yana yigirma yil zabt etishni davom ettirdi. Binobarin, bu cheksiz hududni bosib olishning o'zi etarli emasdi, ayni chog'da uni qo'ldan chiqarmay ushlab turish ham lozim edi. Turkut hokimiyatining shafqatsiz zulmi yangi tobelarga yoqib tushishi mumkin emasdi va oqibatda bo'lginchilik kayfiyati bir lahza ham tinmas edi. Ashina xonadoniga qarshi isyon dam u erda, dam bu erda tinimsiz, to saltanat halokatga yuz tutguncha davom etdi.

Mug'onxon oldida turgan eng keskin ichki siyosiy muammolardan biri saltanat chekka o'lkalari ajralib chiqib ketishining oldini olish edi. Mag'lublar qavmi ko'zi bo'ri kallasi aks ettirilgan bayroqli, zirxli turkut suvorilariga tushib turgandagina sodiq, tobe bo'lib qolardi. Etarli askariy quvvatga ega bo'lgan markaziy hukumat vakiligina g'alayonni va bo'lginchilikni oldini ola bilardi. Biroq qo'lida ham hokimiyat, ham askariy quvvat bo'lgan xon o'rdasidan juda uzoq masofada bo'lgan voliyni xonga sodiqlikka nima majbur qila olardi? To'g'ri, voliylikka

⁵⁶ Qadimgi turklarning ichki tarixini bshshsh uchun shuni tushunib olish kerakki, har bir bek o'zining shaxsiy (kedib chiqishi hayvonyaar nomidan) issharidan tashqari, lavozimiga qarabo'zgarib turiladigan unvon-laqablarga ega bo'lgan. Turkutlarning pirim xonlari tarix asarlarida ikki, hatto uch nom bilan uchraydi. Masalan, SHetu — atoqli ot (Bichurin uni Jetu deb nomlaidi); saltanat sharqidagi ulus begi sifatida u Erfuxon bo'lgan; hoqon bo'lgach Iliguylu SHe Moxe SHaboloxon unvonini olgan. U ko'proq xumoiuap bergan — SHabolio (qaroqchi) laqabi bilan mashhurdir, ba'zilarining esa faqat atoqli oti ma'lum, xolos (# Liu Mai tsai, Die chineschen Nachtichten..., 122). SHetu - "erishgan" (hokimiyatga) degani. Erfu turkicha Er (er kishi) +bek degani. Iliguylu SHe Moxe SHabolo el Kulug shad Baga Ishbara qadimgi turkidan tarjima qilinganida: "Davlatning shonli shodi, ilohiy qudrap'sh xon " degan mazmunni ifoda etadi. Barcha ismlar va unvon-laqablarning ma'nosini aniqlash iloji bo'lmaganligi uchun, oa'zi birlari manbalarda qanday shaklda uchrasa shu ko'rinishda zapdirilda.

qarindoshlardan tayinlash mumkin, biroq bu bilan vaziyat o'zgarib qolmasdi, chunki qarindoshlar orasidagi urushlar yangi bir hodisa emasdi. Mana shunday bir holatda pog'onali ulush tizimi ishlab chiqildi. Uning mazmuni jo'ngina edi: voliyning yaxshi niyatlari, shaxsiy sifatleri sodiqligiga kafolat bo'la olmas ekan, uni markaziy hukumatga bog'lab qo'yadigan manfaat o'ylab topish lozim. Pog'onali ulush tizimi taxtga vorislik qilish navbatini o'rnatdi. Mug'onxon Nizomiga muvofiq taxt otadan bolaga to'g'ridan to'g'ri emas, balki akadan ukaga, kichik amakidan katta jiyanga o'tadigan bo'ldi. Taxtga voris hisoblangan shahzodalar navbat kutib, taxtga erishguncha ulus (ulush)ni boshqarar edilar.

Agar 568 yilda turkut davlatida to'rt ulus (ulush) bo'lgan bo'lsa, 576 yilda ularning soni sakkiztaga etdi. Bu ulus (ulush)larni G'arbiy Ovro'padagi feodallarga o'xshatish uncha to'g'ri emas. Bu o'rinda chegarasi uncha aniq bo'lmagan mintaqaga hokimlik qiluvchi sarkardalarning harbiy kuchlarni o'zaro bo'lib olishi deyish to'g'riroqdir. Oliy xonni Menandr Arsila deb ataydi. Arsila turkicha "Arslon" so'zining buzib aytilgani ekanligini fahmlash qiyin emas. Mug'onxon 572 yilda o'lganligi ma'lum. Yangi Nizom bo'yicha taxtga uning ukasi Toboxon⁵⁷ o'tirgan. Arslon esa Toboxonning o'z (hayvoniy) ismi deb taxmin qilish mumkin.

572 yilda Toboxon jiyani SHetuga sharqda, g'arbdan ukasiga ulus (ulush)lar ajratadi. Ukasi shu orada vafot etadi va ulusini Bo'rixon⁵⁸ unvonini olgan o'g'liga meros qoldiradi. Mug'onxonning o'g'li To'reman⁵⁹ shimolda⁶⁰ (qirg'izlar va chiklar erida bo'lsa kerak) o'z o'rdasiga ega edi.

YAqindagina vafot etgan Istamixon farzandlari ham o'z uluslariga ega edi: Qora CHurinning⁶¹ ulusi Ettisuvda; Turk- sanfniki Quyi Volga va Uralda.⁶² Ulug' xonning qarorgohi turkutilarning kindik qoni to'kilgan er — Oltoy atrofida bo'lib, qolgan ikki ulus Amraku⁶³ va Teginshod⁶⁴ degan ikki o'g'liga tegishli bo'lishi

⁵⁷ Turkichasiga Tabaxxon. va'ni Tovoqlixon. Bu uning buddaviy janligiga iyyura. Buddaviy rohib sifatida xavriya vshib tovoq kutarib vurgan.

⁵⁸ Menandr uni Baxon devdi Uturgurlar 576 yilda Bosporni olganida ularga Boxon qo'mondonlik qipgan, demak, uning o'rdasi Kubanda bo'lgan.

⁵⁹ 711 To'rzman — turkicha unvon. xitovcha "Dolobin" dan tiklangan. vunonchasi Turum (qarang: I. N. Gumilev Velikaya Rasprya..., 88). Bundan tashqari uning ushyuni ham bo'lgan Apa (to'ntch), xitoycha — Abo, forscha Abnir.

⁶⁰ Bu CHian-sun SHen uning ulusini "SHimoliv xonlik" deb atashidan ham ma'lum bo'ladi.

⁶¹ Uning unvoni Tarduixon (xitoycha: Dyangu Datuxon, yunoncha "Tardu"). Qora CHurin — "aynigan, chayyu, maymoq ma'nosidagi laqab.

⁶³ Xitoychasi «Anlo», Bichurin xato qilib "YAnlo" deb yozgan.

kerak.

Ushbu ancha chigal va murakkab ulus (ulush) tizimining pogonali meros yo'li dastlabki davrlarda ancha ijobiy natijalar berdi. Ikki marta taxgga voyaga etmagan shahzodalar kelishi va oqibatda saltanat jiddiy bir jar yoqasiga kelib qolishi oldi olindi. Hokimiyat doimo tajribali kishilar qo'lida bo'ldi. Ulus beklari ertami kech oliy hokimiyatga erishish ilinjida g'alayonu fitnalarga qo'l urishmadi va mamlakat to'rt tomonga qarab kengayib bordi. Ulus (ulush) tizimini Ashina beklari V asrda muloqotda bo'lgan II asr janubiy xunlarining" zurriyodlaridagi taxtga vorislik andozasidan o'zlashtirilgan deb taxmin qilish mumkin, ammo xunlardan farqli o'laroq turkutlarning maqsadi boshqacha edi. Manbalar VI yuzyillikda "katta oilalar" bo'lganligi haqida aniq ma'lumotlar bermasa-da, bunday tartib turkutlar uchun yangilik ekanligini ishonch bilan yozadi. Nima bo'lganda ham, bu tizilmaning ham samarasi, ham oqibati turkut hoqonligi tarixida darrov bo'y ko'rsata boshladi. Turkutlar jamiyatining tizimi qanchalik puxta va mukammal bo'lmasin, bu jamiyat jips bo'la olishi mumkin emasdi. Chunki askariy aslzodalar tabaqasining ajralib turishining o'ziyoq, hukumat umumxalq manfaatini ko'zlagan taqdirda ham o'z mevasini bermasdan qolmas edi. Ushbu o'ziga xoslik zaminida ishlab chiqarish darajasining pastligi hamda urug'chilik turmush tarzining saqlanishiga asos bo'lgan ko'chmanchi chorva xo'jaligi yotardi.⁶⁵

Turkutlarning ichki to'qnashuvlariga razm solsangiz, xon sulolasiga qarshi biror marta bo'lsa ham oddiy askar qo'zg'olon, isyon ko'targanini ko'rmaysiz. Barcha fitnalaru qo'zg'olonlar boshida shahzodalar va beklar turgan.

Turkutlarning barchasi jangchilar edi, shuning uchun ularning hammasi Ashina urug'i beklari bo'luklarining birida askar hisoblanardi. Biroqular o'z jangchilarining kayfiyati bilan hisoblashishga mahkum edi, chunki ana shulargina ularning yagona tayanchi va himoyachilari edi. Bundan kelib chiqadiki, jangchilar beklarni o'z manfaatlariga mos harakat qilishga ko'ndirar, ko'nmasa ularni tark etib ketardilar. Lekin, baribir, saltanat ichida to'qnashuv sodir bo'lishining oldini olib bo'lmasdi. Biroq bu to'qnashuv jangchilar bilan zodagonlar orasida emas,

⁶⁴Kavkazdan uncha olis bo'lmagan chunki u Vizantiva ernariga hu.shumshruyushtirib turgan.

⁶⁵ L. P. Potapov, Ранние формы феодальных отношений..., 28-6.

balki manfaatlari va urug'i jihatidan mushtarak bo'lgan zodagon va jangchilardan tashkil topgan turli guruhlar o'rtasida yuzaga chiqardi. Bunday vaziyatda sulolani yiqitishning turkutlar uchun hech qanday nafi yo'q edi, chunki istalgan yo'nalishdagi talabni boshqaradigan shaedoda doim topilardi. Tashqi xavf ham yo'q emasdi: Xitoy mudofaadan hujumga o'tishga doim shay turganiday, tele qabilalari ham qulay fursat tug'ildi deguncha qo'zgonon ko'tarishga tayyor turishardi. Keskin vaziyat turkutilarni jipslashishga majbur etgani uchun ham biror marta oddiy jangchilarning xonlar va shahzodalarga qarshi qo'zg'oloni bo'lgani yo'q.

Biroq hoqonlik halokatga mahkum edi. SHuni ham ta'kidlab o'tish lozimki, turkut jamiyatida sinflar vujudga kelishi endi boshlangan bir vaqtda uning tevaragidagi (Xitoy, Gaochan, Sug'ud, Eron) davlatlarida kuchli va rivojlangan sinflar mavjud edi. Jasurlik va kuchga qarshi bu davlatlarda ayyorlik va pul qo'yilgan bo'lib, yaxshi o'rgatilgan, yaxshi qurollangan yollanma askarlar jangda dasht suvorilaridan qolishmas edi. Mana shu vaziyatlarni hisobga olib, turkut saltanatining yiqilishiga emas, balki uning yuz yildan ko'proq saqlanib turganiga ajablanmoq kerak.

Qabila. Davlat muassasi sifatida yuzaga chiqqan pog'onali ulush tizimi bora-bora oddiy turmushga ham kirib bordi. Oilaviy munosabatlar shakllanishiga ta'sir etib, mulkning taqsimlanishiga to'g'anoq bo'ldi va katta-katta oila jamoalari paydo bo'lishiga turtki bo'ldi. Hoqonlik zamonida dasht aholisi anchagina boyib qoldi. Avvalo, to'rt tomondan o'ljalari o'zi oqib kela boshladi, so'ng xonlar o'z qo'li bilan yaqinlariga tortiqlar qiladigan bo'ldi va nihoyat, dashtda osoyishtalik o'rnatilib, talon-tarojga chek qo'yilishi chorvachilik rivojlanishiga samarali ta'sir qildi. Boylik kelib yig'ila boshlandi, ular harj ham qilinmadi, bo'lib ham olinmadi, balki katta oilalar omborlarida saqlanib turdi. Bunday holat faqat qabilachilik asosidagi mavjud uyushmadagina bo'la olardi. Ashina urug'i xonlari ana shunday idora usuli namunasini g'oyatda ulkan mamlakatni birgalikda idora etish bilan amalda ko'rsatdilar.

Yirik oilalarning boshchilari xonlarga taqlidan yaqin va uzoq qarindoshlarini

boshqara boshladilar. Oilalar o'sib qabilalarga aylandi, biroq bu o'sish hududiy va tashkiliy yaxlitlik saqlangan holda sodir bo'ldi. Oqsoqollar o'zlarining mavqelaridan foydalanib, hatto xon va iduqut unvonlarini qabul qilishgacha borib etdilar.

Uyg'urlar, qorlukdar, dulu va nushibilar, sharqda kidanlar, g'arbda g'uzlar va ko'manlar (ruslardagi "polovez"lar) ana shu tariqa hoqonlik xarobalari o'rnida tashkil topdilar. Qabilalarning asosiy dushmani o'rda bo'lib, ularning manfaatlari kelishtirib bo'lmas darajada qarama-qarshi edi. Qabila oqsoqollari o'z mollarini boqishni, betaraflikni, yollanma askarlar berib Xitoydan sovg'a olib turishni istardi. O'rda xonlari esa barcha yigitlarni o'z qo'shiniga jalb etib, ularni askarlikdan horij bo'lgan fuqarolari hisobiga boqish, harbiy tahdid bilan Xitoydan hiroj sifatida ziroat va hunarmandchilik mahsulotlari undirishni xohlardi. Kelishishning iloji qolmagan edi.

Yirik qo'shnilar tomonidan qisib qo'yilgan mayda qabilalar (ularni urug'lar bilan tenglashtirmaslik kerak) ittifoq tuza boshladilar, bunday ittifoq "o'g'uz" deb atala boshlandi. Ana shulardan to'qqiz o'g'uz (to'qqiz jamoa) — uyg'ur, uch o'g'uz — qorluq etnonimlari vujudga kelgan. Dulu va nushibilar ham ittifoq tarzida tashkil topgan bo'lsalarda, ular o'g'uz atalmadi, chunki ular boshqa tabiiy bo'lmagan bir sharoitda — turkut xonining farmoniga binoan tashkil etilgandi. SHuning uchun ham ular hamon "budun" holidagi qolib, "on oqbudun" — o'n o'qli xalq deb atalar edi. "Budun" va "o'g'uz" atamalari lug'aviy munosabati quyidagicha: turklarga bo'yinsundirilgan uyg'urlar turklarga budun hisoblanadi, biroq o'z ichki tuzilmasini saqlab qolganligi uchun o'g'uz ham bo'lib qolaveradi. Xuddi shuning uchun ham Bilka qoon: "To'quz o'g'uz xalqi o'zimning xalqim" deganida asosi bor edi, ya'ni to'g'ridan to'g'ri xonga bo'yinsundirilishini aks ettirardi.

Muammoga oid barcha adabiyotlarni tanqidiy ko'rib chiqqan A. N. Kononov ham "o'g'uz" atamasini biz bilan bir xil tushunadi: "O'g'uz" etnik jamlovchi otining o'zagi og(o'g') — "urug', qabila" bo'lib, qadimgi turki o'zak cur (o'g') - "ona" so'zi bilan hamda shu o'zakdan yasalgan "og- ul" — "avlod, o'g'il" va og

uch (o'gush) tug'ishgan so'zlari bilan bog'lanadi.”

SHunday qilib, “o'g'uz” so'zi dastlab “qabila” ma'nosini “birlashgan qabilalarni” anglatib keyinroq jamlovchilik ma'nosiga ega bo'lgan etnik nomga aylangan. Muayyan holarda aniqlovchi ham qabul qilgan: to'quz o'g'uz (to'qqiz (xil) qabila), uch o'g'uz (uch (xil) qabila).

Keyinchalik o'g'uz atamasi o'z ma'nosini o'zgartirib (xuddi “budun” atamasi kabi) turkmanlarning afsonaviy ajdodi O'g'uzxon nomi saqlanib qoladi va u hatto musulmon payg'ambarlari sirasiga kiritiladi.

Xodisalar jarayonini bunday talqin etilishining asosiy dalili sifatida IV-V asr gaoguy-dililarda urug' tarmoklarining va VII-VIII asr telelarida qabila tarmoqlarining mos kelmasligi olingan. Hech qanday shubhasiz telelarning ajdodi bo'lmish gaoguylar 12 urug'ga bo'lingani holda tele avlodlari 15 qabiladan tashkil topgan: YUgange (uygurlar), Seyanto (sirlar va yantolarning qo'shma qabilasi) *Kibi*, *Dubo* (to'balar), *Guligan* (kurikan, ya'ni yoqutlar ajlodlari), *Dolange* (telengitlar), *Bug'u*, *Bayegu*-Bayirku, *Tunlotongra*, *Xun*, *Cug'ye*, *Adye* (edizlar), *Baysiyu* Ushbulardan dubo bilan qiyoslash mumkin bo'lgan to'balar hsobga olinmasa, boshqa birortasini qiyoslab bo'lmaydi. Bu tarzda qayta shakllanish, ota urug'chiligi tizimiga asoslangan karindoshlik buzilib, eski urug'lar o'rniga yangilari shakillangandagina sodir bo'lishi mumkin. Bunday Qayta shakllanish uchun zamin ham bor edi: turkutlar yuz yil davomida telelar ustilan hukmronlik qilib, aynan o'shalarining madadi bilan shimoliy dashtlarda qahramonlik ko'rsatadi. Demak telelar urda tizimiga va uning tolis-tardush qanotlariga kirgan “budun” edi. Taxmin qilmoq mumkinki, huddi shu zaminda yangi turmush sharoitiga hududiy-xujalik birlashmalariga muvofiq kelmagan urug'chilik tizimi o'zgartirilgan. Bu o'zgarish xitoy manbalarida o'z aksini topgan, ular galaguy urug'ini “sin”-familiya desalar, tele qabilasini “bu” (“nasl, avlod” Bichurin tarjimasida) deb ataydilar.

Xulosa

SHunday qilib, Ashina sulolasi hoqonligi ijtimoiy tuzilmasining ayricha xususiyati askariy va qabilachilik tuzumi chatishmasidan iborat bo'lishidir. Amalda mana shunday chatishmani Markaziy Osiyoda birinchi marta bunyod etgan ko'chmanchi xalq turkutlardir. Ular buni o'zlari ham anglaganlar va o'z saltanatlarini "mangu el" deyish bilan jujanlar vahshiy o'rdasi xo'jayinchiligi va telelar qabila itifoqiga nisbatan turg'un ekanligini ta'kidlamoqchi bo'lganlar.

El/il so'zi turli olimlar tomonidan turlicha tarjima qilinadi va tushuniladi. Bu tushunchadagi eng muhim nuqta urda bilan birga yashashga majbur etilgan, bo'yinsundirilgan qabilaning mavjudligi va hukmron qabilaning ham bo'lishidir.

Ko'ndalang turgan siyosiy vazifalarning barchasini to'la echa olishga qodir bo'lmasa ham, turkutlar yaratgan ijtimoiy siyosiy gizim VI asrdagi eng yaxshi tizim edi: u turkutlar bir necha bo'g'ininig o'z iqlimida ustunligini ta'min etdi, ayni chog'da o'sha tizimning o'zi (quyidagi bayonlarimizda ko'radiganimizdek) uni

halokatga etakladi.

Rivojlanish davrasi. Agar bir tomondan turkutlar, ikkinchi tomondan ularga tobe bo'lgan ko'psonli qabilalar o'rtasida aniq chegara belgilab olinmasa, turkut hoqonligiga doxil bo'lgan ko'chmanchi qabilalarning ijtimoiy rivojlanishi davrasi masalasini hatto engil-elpi ham hal qilib bo'lmaydi. SHu bilan birga hoqonlik 110 yillik mustaqil mavjud bo'lgan chog'ida ko'zga ko'rinarli evrilishga yuz burgani va VII asrdagidan ancha farklanishi ham hisobga olinmog'i darkor.

A. N. Bernshtam qadimgi turklarning ijtimoiy tuzumi "ibtidoiy feodal munosabatlar vujudga kelishining ilk shakli"⁶⁶ holatidadir degan xulosaga keladi. Bu iddaolar tarixiy faktlarga ham, F. Engelsning varvarlikning eng yuqori cho'qqisida harbiy demokratiya vujudga kelishi haqidagi aniq fikriga ham zid keladi. "Oliy bosqich temir eritishdan boshlanib, harfli yozuvni ixtiro etib, so'z san'atini yozuvda ifodalanishi bilan zivilizaziyaga o'tadi. Bu bosqich, aytilganidek, faqat sharqiy yarimsharda mustaqil bosib o'tilgan bo'lib, boshqa hamma o'zidan oldingi bosqichlarni qo'shib hisoblaganda ham ishlab chiqarish borasida yutuqlarga eng boydir. Qahramonlik davri yunonlari, Rimga asos solinguncha yashagan italyan qabilalari, Tazit germanlari, vikinglar zamonidagi normannlar ana shu bosqich aholisidir".⁶⁷ YUqorida aytilganlardan kelib chiqib, turkutlarni ana shu bosqichdagi etnoslar sirasiga kiritish bimalol mumkindir.

Varvarlikning oliy bosqichiga xos xususiyatlarni F. Engel's shunday ta'riflaydi: "Barcha madaniy xalqlar qahramonlik davrini - temir qilich chog'ini boshidan kechiradi".⁶⁸ Bu temir eritib undan narsa yasagan turkutlarga ham tegishlidir. "Boylik shiddat bilan ko'payib bordi, biroqfaqat ayrim kishilarning boyligi sifatida".⁶⁹ Buni yuqorida bayon etdik. "Qullik ijtimoiy tizimning tarkibiy mohiyatli qismiga aylanib bordi".⁷⁰ Turkutlarda qulchilik taraqqiyotning aynan ana shu maqomida edi.⁷¹ "Haydaladigan er ayrim oilalarga avval vaqtincha foydalanish uchun keyin doimiy qilib beriladi, uning xususiy mulkka aylanishi asta-sekin

⁶⁶ A. N. Bernishtam. Sozial'no-ekonomicheskiv strov.... 145-6.va

⁷⁰ F. Engel's. Proisxojenje sem'i, chastnoy sobstvennosti i gosudarstva, 132-6.

⁶⁸ Uma asar. 162-6.

⁴³ O'sha asar. 163-6,

⁴² O'sha iovda.

⁷¹ Bichurin N. YA. Sobranie svedeniv.... II i. 300-6. S. P. Tolstoe, Drevniy Xorezm, 261-6. S. P. Tolstovning qadimgi turklardagi quldorchilikka qarashlari ancha asoslidir.

sherikchilik nikohidan monogam nikohga o'tish jarayoni bilan hamqadam tarzda sodir bo'ladi. Alohida oila jamiyatning xo'jalik birligiga aylanadi".

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati

1. Abu Rayhon Beruniy. Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar. Tarjimon A.Rasulov. Tanlangan asarlar. 1-jild, Toshkent. 1957.
2. Abu Rayhon Beruniy. Hindiston. A.Rasulov, YU.Hakimjanov, G'.Jalilovlar tarjima qilgan. Tanlangan asarlar 2-jild, Toshkent. 1965.
3. Asqarov A. A. O'zbek xalqining etnogeneziva etnik tarixi. – Toshkent, 2009.
4. Bartol'd V.V. "Iz vlechenie iz sochineniya Gardizi "Zayna al-axbor"// Sochineniya. T. VII.1964.
5. Bartol'd V.V. Turkistan v epoxu Mongol'skogo nashestviya. Soch. Tom. I. 1964.
6. Bernshtam A. N. — Drevniy Otrar // Izd. AN Kaz SSR. Ser. arxeol. - 1951.- № 3. S. 81-97.
7. Bernshtam A. N. — Drevnetyurkskie dokumentm iz Sogda // EV.-1951. T. V S. 65-75.

8. Bernshtam A. N. — Tyurki i Srednyaya Aziya v opisaniy Xoy-CHao (726 g.) // VDI.- 1952. № 2. S. 187-195.
9. Bernshtam A. N. — Drevnetyurkskoe pis'mo na r. Lene // EV. — 1951. T. IV. S. 76-86.
10. Bichurin N. YA. Sobranie svedeniy o narodax, obitavshix v Sredney Azii v drevnie vremena. Tom. II. M. — L. 1950.
11. Bromley YU.V. Etnos i etnografiya. — M., 1973.
12. Bromley YU.V., SHkaratan O.I. O sootnoshenii predmetnykh oblastey etnografiya, istorii i soziologii // Sozial'naya etnografiya. 1979. №4.
13. Grekov B. D., YAkubovskiy A. YU. Zolotaya Orda i ee padenie. M.-L. 1950.
14. Gubaeva S.S. Farg'ona vodiysi aholisi va uning etnik tarkibi. Toshkent, 1983.
15. Grekov B. D., YAkuboeskiy A. YU. — Zolotaya Orda i ee padenie. M.-L.: Nauka, 1950. S. 203.
16. Grigor'ev G. V. — Karaxanidn v Maverannaxre po tarixi Mu-nedjim bnvshi. s per. i primech. V. V. Grigor'eva. TVOAO. — SPb., 1874. CH. XVII.
17. Grigor'ev G. V. — O skifskom narode Sakax. — SPb., 1871.
18. Grigor'ev G V. — Kratkiy otchet o rabote YAngiyul'skoy arxeolo-gicheskoy ekspedizii 1937 g. — Tashkent. «Fan». 1940. S. 40.
19. Grigor'ev G. V., Grotova V. I. — Kaunchi-tepa (raskopki 1935 g.).- Tashkent: Izd. Uz. fil. AN SSSR, 1940. S. 63. 444
20. Grumm-Grijimaylo G. E.— Zapadnaya Mongoliya i Urayanxayskiy kray. T. II. SPb., 1914. S. 8%.
21. Gubaeva S. S. — Etnicheskiy sostav naseleniya Fergann v konze XIX nachale XX v. — Tashkent: Fan 1983. S. 104.
22. Gubaeva S. S. — Naselenie Ferganskoy dolinm v konze XIX — nachale XX v. — Tashkent: Fan, 1991. S. 127.
23. Gulyamov YA. G. — Istoriya orosheniya Xorezma s drevneyshix vre-men do nastoyaidax dney. — Tashkent: Izd. AN UzSSR, 1957. S. 313.
24. Gulyamov YA. G. — Kushanskoe zarstvo i drevnyaya irrigaziya Sred-ney Azii. // ONU - 1968. -№ 8. S. 5-13.

25. Gulyamov YA. G. — Arxeologicheskie raskopki k zapadu ot Buxars-kogo oazisa - // Tr. AN UzSSR. Tashkent, 1956. - T. VIII. S. 149-161.
26. Gumilev L. N. — Eftalitn i ix sosedi. VDI. — 1959. — № 1.
27. Gumilev L. N. — Xunnu. — M.: Izd. vost. lit. 1960. S. 291.
28. Gumilev L. N. — Otkrntie Xazarii. — M.: Nauka, 1966. S. 191.
29. Gumilev L. N. — Xunnn v Kitae. — M.: Nauka, 1974. S. 236.
30. Gumilev L. N. — Geografiya etnosa v istoricheskiy period. — L. Nauka, 1990. S. 278.
31. Gumilev L.N. Drevnie tyurki. M. : Nauka, 1967.
32. Gumilev L.N. Etnogenez i biosfera Zemli. M. 2005.8-43- bb.
33. Karamzin N. M. — Soch. T. 1. Istoriya gosudarstva Rossiyskogo. — SPb., 1803. S. 304.
34. Karmisheva B.X — Uzbeki-lokayzn YUjnogo Tadjikistana. V'sh. I. Istoriko-etnograficheskiy ocherk jivotnovodstva v dorevolyuzi-onnny period. // TIIAEAN Tadj SSR. - 1960. - T. XXVIII. S. 97-127.
35. Karmisheva B. X — Etnograficheskaya gruppа «tyurk» v sostave uzbekov // - SE. - 1960. № 1. S. 3-22.
36. Karmisheva B. X. Peshereva E. M. — Materialn etnografichesko-go obsledovaniya tadjikov Nuratinskogo xrebtа. // SE. — 1964. № 1. S. 6-21.
37. Karmisheva B. X — Ocherki etnicheskoy istorii yujn'gx rayonov Tadjikistana i Uzbekistana. — M.: Nauka, 1976. S. 323.
38. Radlov V. V. — Op'gg slovaryа tyurkskix narechiy. T.l. ch.2. — SPb. 1893. S. 66.
39. Tolstov S.P. Основные проблемы этногине́за народов Средней Азии. S.E., 1947, № VI, VII. Народы Средней Азии и Казахстана (pod.Red. S.P.Tolstova). M.,1962-63 g.g.Ocherki obщey etnografii. M., 1967-68 gg. T. «Aziatskaya chast' SSSR».
40. Tolstov S. P. — Drevniy Xorezm. — M., 1948. S. 352.
41. Tolstov S. P. — Po sledam drevne-xorezmskoy zivilizazii. — M.-L.: Izd. AN SSSR, 1948. S. 322.

42.YAkubovskiy A.YA. “K voprosu ob etnogeneze uzbekskogo naroda” “Uz Fan”, Tashkent. 1941.